

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI**

**“MOLIYA” KAFEDRASI**

**“O‘ZBEKISTONDA BYUDJET JARAYONINI  
OPTIMALLASHTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI”**

5230600 - “Moliya” - ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun  
yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

“Moliya” kafedrası mudiri

\_\_\_\_\_ i.f.n., dots. O.Komolov

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017 y.

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ dots. B. Tog‘ayev

**TOSHKENT - 2017**

## MUNDARIJA:

|                                                                                                                   |             |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                | betlar<br>3 |
| <b>1-BOB. BYUDJET JARAYONI VA UNING NAZARIY – TASHKILIY, HUQUQIY ASOSLARI .....</b>                               | 6           |
| 1.1. Byudjet jarayonining mazmun – mohiyati va uni tashkil etishning iqtisodiy-huquqiy asoslari.....              | 6           |
| 1.2. Byudjet jarayonini tashkil etishning asosiy bosqichlari va ularni amalga oshirish tartibi.....               | 13          |
| 1.3 Byudjet jarayonini tashkil etish yuzasidan ilg‘or xorij tajribalari.....                                      | 25          |
| 1-bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                        | 34          |
| <b>2-BOB. BYUDJET JARAYONINI TASHKIL QILISH AMALIYOTI TAHLILI .....</b>                                           | 36          |
| 2.1. Byudjetni prognozlashtirish va rejalashtirish .....                                                          | 36          |
| 2.2. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va ularning taqsimlanish holati .....                           | 42          |
| 2.3. Mahalliy byudjetlar ijrosi tahlili .....                                                                     | 52          |
| 2-bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                        | 60          |
| <b>3-BOB. O‘ZBEKISTONDA BYUDJET JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI.....</b>                                  | 62          |
| 3.1 Byudjet jarayonini tashkil etishda g‘aznachilik faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....                   | 62          |
| 3.2 Byudjet jarayonida natijaviylikka yo‘naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotini rivojlantirish masalalari..... | 71          |
| 3-bob bo‘yicha xulosa.....                                                                                        | 76          |
| <b>XULOSA VA TAKLIFLAR .....</b>                                                                                  | 78          |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>                                                                   | 81          |

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Bugungi kunda byudjet-soliq siyosati borasida olib borilayotgan o'zgarishlarning markazida byudjet daromadlari va xarajatlarining muvofiqligini ta'minlash hamda ularning samaradorligini oshirish masalalarini hal etish taqozo etilayotgan dolzarb masaladir. Zero, iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohotlarning chuqurlashuvi jarayonida O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etishning takomillashtirib borishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'kidlanganidek, xususan "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir."<sup>1</sup> Darhaqiqat, davlatning o'z vazifa va funktsiyalarini bajarishiga, o'z iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishiga imkon beradigan qurol, dastaklardan biri – davlat byudjetidir.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etish sharoitida byudjet ijrosini yanada oshirish orqali, moliya-byudjet sohasidagi huquqlarini kengaytirish va ularning moliyaviy bazasini mustahkamlashni talab qiladi.

Mamlakatimizda davlat byudjetining profitsit bilan bajarilayotganligi, byudjet jarayonining oqilona tashkil etilganligi davlat byudjeti munosabatlarini samarali tashkil etilayotganligidan, shuningdek xarajatlarni moliyalashtirish tartibi to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi sharoitida O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etishning hozirgi zamon xususiyatlari hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash muammolari va ularni hal qilishga qaratilgan mazkur mavzu

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2017 – 104 b.

bugungi kunda dolzarbligini ko'rsatadi.

Bu borada, byudjet islohotlari doirasida amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlar, xususan, byudjet qonunchiligini takomillashtirish doirasida yangi Byudjet Kodeksining qabul qilinishi, davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmlarining bosqichma-bosqich byudjet amaliyotiga tadbiq etilishi, davlat xaridi tizimining samarali tashkil etilishi va unga kichik biznes subyektlarini kengroq jalb qilish mexanizmlarining ishlab chiqilishi, byudjetni o'rta muddatli rejalashtirish va byudjet mablag'larini maqsadli sarflashda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish elementlarining joriy qilinayotganligi kabilar davlat byudjetining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin egallab turganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda davlat byudjetining o'rnini uning mablag'laridan iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishda foydalanish ko'lamlari, investitsiyalarni qo'shma moliyalashtirishdagi davlat byudjetining hisssasi, zararga ishlovchi ayrim korxona va tarmoqlarga beriladigan subsidiyalar hajmlari bilan izohlash ilmiy va nazariy jihatdan to'g'ri emas, albatta. Aslida davlat byudjeti dastak va vositalaridan iqtisodiyot taraqqiyotining ildam o'sish sur'atlarini rag'batlantirish, modernizatsiya va tarkibiy qayta qurishlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, asoslangan va samarali moliyaviy va iqtisodiy imtiyozlar tizimini qo'llash, ijtimoiy sektorning samarali ishlashini ta'minlovchi zarur mablag'larni jamlash va ularni so'nggi ijobiy natijalarni ko'zlagan holda oqilona sarflashda foydalanish maqsadga muvofiq.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Byudjet jarayonini mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda tutgan o'rnini yanada chuqurroq o'rganish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish hamda zarur xulosalar chiqarish, shuningdek, ushbu sohada mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali choralarini qo'llash bo'yicha takliflar berish, jahon tajribasini mamlakatimizda qo'llash shart – sharoitlari borasida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, bitiruv malakaviy ishini yozishda quyidagi **vazifalar** belgilangan:

- byudjet jarayonining iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini yoritish;
- byudjet jarayonini tashkil qilishning nazariy-huquqiy asoslarini chuqurroq o'rganish;
- byudjet jarayoni bosqichlarini tadqiq etish;
- iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlat byudjetidan foydalanish amaliyotini tahlil etish;
- iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda byudjet mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini tadqiq qilish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat byudjetidan iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda foydalanishning dolzarb masalalarini tadqiq qilish asosida tegishli xulosalarni shakllantirish.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti.** Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlar bitiruv malakaviy ishining obyekti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini samarali tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati. Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati – istiqbolda tadqiqot ishi ilmiy xulosalari va ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalaridan byudjet jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, umumdavlat va hududiy maqsadli dasturlar ishlab chiqilishida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan byudjet jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan maqsadli dasturlar va strategiyaning tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi tarkiban kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **1-BOB. BYUDJET JARAYONI VA UNING NAZARIY – TASHKILIY, HUQUQIY ASOSLARI**

### **1.1. Byudjet jarayonining mazmun – mohiyati va uni tashkil etishning iqtisodiy-huquqiy asoslari**

Iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, uning xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashuvi davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi ahamiyatini oshirmoqda. Natijada iqtisodiyotni to'xtovsiz harakatini ta'minlovchi, uning boshqaruvini nazorat qiluvchi, yaratilgan milliy boylikni taqsimlovchi vosita bo'lgan davlat byudjeti alohida e'tibor va yondashuv talab qilmoqda. Mustaqillikning sharofati bilan yaratilgan sharoitlar uni alohida bir bo'linma sifatida o'rganishga, tadqiq va tahlil qilishga keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo'lida izchil ilgarilab borishini tahlil qilar ekanmiz, o'tgan yili prinsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Bu islohotlarning asosiy maqsadi - aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir."<sup>2</sup> - deya ta'kidlab o'tgan edilar.

Yuqoridagilarga asoslangan holda mamlakatimiz miqyosida byudjet jarayonini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunga binoan, byudjet jarayoniga ta'rif beradigan bo'lsak, "Byudjet jarayoni — Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni".<sup>3</sup> Byudjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va byudjet tuzilishi, tegishli organlar va yuridik shaxslarning

---

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2017 – 104 b.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son.

byudjet huquqlari bilan belgilanadi hamda byudjet jarayonining mazmunini belgilashda byudjetni tuzish tartibi, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosi, mamlakat byudjetini tuzishning nazariy va metodologik masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Byudjet jarayonining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- muvozanatlangan bozorga kirib borish yo'lida muhim taraqqiyotga erishish maqsadlarida iloji boricha ko'proq moddiy va moliyaviy zaxiralarni izlab topish;
- byudjet daromadlarini alohida soliqlar va boshqa to'lovlar, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning prognozlari va maqsadli dasturlariga muvofiq holda umumiy hajmi bo'yicha belgilash;
- byudjet xarajatlarini mo'ljallangan vazifalar bo'yicha, shuningdek byudjetning umumiy hajmini nazarda tutilgan umumdavlat ahamiyatiga molik jami tadbirlarni uzluksiz moliyalashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilash;
- byudjetni iqtisodiyotdagi inflyatsiya tendensiyalarini bartaraf etish va milliy pul tizimning barqarorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan umumiy moliyaviy barqarorlashtirish dasturi bilan muvofiqlashtirish;
- iqtisodiy maqbul manbalar hisobidan byudjet taqchilligini qisqartirish va tugatish;
- turli darajadagi byudjetlarni balanslanishini ta'minlash maqsadlarida davlat daromadlari manbalarini shu byudjetlar o'rtasida, shuningdek xo'jalik sohalari va iqtisodiy mintaqalar o'rtasida qayta taqsimlash yo'li bilan byudjet boshqaruvini amalga oshirish;
- barcha yillik miqyosli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning mutanosibligi va balanslanganligini ta'minlash maqsadlarida istiqbolga mo'ljallangan byudjetni rejalashtirish prognozlash rolini oshirish;
- yuridik shaxslar va ayrim fuqarolarning o'z soliq majburiyatlarini bajarishlarida ularning moliyaviy faoliyatini va daromadlari ustidan nazoratni kuchaytirish;
- elektron hisoblash texnikasidan keng foydalangan holda moliyaviy hisob-kitoblarni avtomatlashtirish tizimi orqali byudjetlarni tuzish va uning ijrosi

jarayonlarini avtomatlashtirish.

Byudjet jarayonini tashkil etishda quyidagi prinsiplarga rioya qilinadi (1-rasm):

1. Yagonalik prinsipi – bu yerda yagona huquqiy baza, yagona byudjet klassifikatsiyasi, mamlakat konsolidatsiyalashtirilgan byudjetini tuzishda zarur bo‘ladigan statistik va byudjet ma’lumotlari uchun byudjet hujjatlari shakllarining yagonaligi va pul tizimining yagonaligi orqali ifodalanadi.

2. Mustaqillik prinsipi – byudjet jarayonini amalga oshirishning uning har bir ishtirokchisi uchun mustaqil bo‘lganligi bilan belgilanadi. Unga muvofiq, bu jarayonning ishtirokchilari daromadlarning o‘z va tartibga soluvchi manbalari hamda ulardan foydalanishning yo‘nalishlarini mustaqil ravishda aniqlash huquqiga egadirlar.

3. Balans metodi prinsipi – bu yerda byudjet daromadlari va xarajatlari o‘rtasida to‘g‘ri nisbatlarni o‘rnatishda gavdalanadi. Unga rioya qilinishi byudjetning barqarorligini va xo‘jalik sohalari o‘rtasida mablag‘larni taqsimlashda zaruriy proportsiyalarni ta‘minlashi kerak. Bu metodning muhim sharti byudjet xarajatlarining daromadlariga muvofiqligi va moliyaviy rezervlarni yaratishdir. Bu prinsip moliyaviy siyosatning bosh maqsadidir.



**1-rasm. Byudjet jarayonini tashkil etishda rioya qilinishi lozim bo‘lgan prinsiplar<sup>4</sup>**

<sup>4</sup> Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma - T.: “Iqtisod-moliya”, 2008 - 84 b.

Byudjet jarayonining ishtirokchilari quyidagilar hisoblanadi:

- mamlakat Prezidenti va qonunchilik (vakillik) hokimiyat organlari;
- ijroiya hokimiyat organlari (mamlakat subyektlarining yuqori mansabdor shaxslari, mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organlari rahbarlari, moliya organlari, byudjet daromadlarini undirish bilan shugʻullanadigan organlar va boshqa vakolatli organlar);
- pul-kredit tizimini tartibga solish organlari;
- davlat va mahalliy nazorat organlari;
- davlatning byudjetdan tashqari jamgʻarmalari;
- byudjet mablagʻlarini bosh taqsimlovchilar va boshqalar.

Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiyotning koʻplab soha va tarmoqlarida keng qamrovli iqtisodiy islohotlar olib borilayotgan va ularning ijobiy natijalari respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti koʻrsatkichlarida ijobiy aks etayotgan hozirgi davrda byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida byudjet faoliyatini rivojlantirish davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilishning asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Maʼlumki, 2000 yil 14 dekabrda “Byudjet tizimi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinganidan beri oʻtgan davr mobaynida byudjet amaliyotida bir qator oʻzgarishlar sodir boʻldi, ular:


- davlat byudjeti ijrosi gʻaznachilik tizimining joriy etilishi;
- bir qator davlat maqsadli jamgʻarmalari va boshqa nobyudjet fondlarining tuzilishi va amal qilishi;
- byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari qoʻshimcha mablagʻlarni jalb qilish manbalarining kengayishi va ular ustidan nazoratni yaxshilash zarurligi;
- byudjet tasnifi, byudjet hisobi va hisoboti tizimining takomillashuvi;
- yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi va boshqa holatlar bilan bogʻliq boʻlib, byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.

Natijada amaldagi “Byudjet tizimi toʻgʻrisida”gi hamda “Davlat byudjetining gʻazna ijrosi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan

normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Byudjet Kodeksida o‘z aksini topdi.

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida amalga kiritilgan yangi Byudjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu Kodeks O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.


O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida “asosiy tushunchalar” moddasi (3-modda) mamlakat byudjet tizimini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlardagi tushunchalar, shuningdek, “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi Qonunida ko‘zda tutilmagan bir qator yangi asosiy tushunchalar bilan boyitildi. Xususan, byudjet jarayoni ishtirokchilari, byudjet mablag‘larini taqsimlovchi, byudjet sohasidagi vakolatlar, byudjet tizimi byudjetlari, byudjetlararo transfertlar, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, davlat moliyaviy nazorati, davlat xaridlari, subsidiya, tartibga soluvchi daromadlar kabi tushuncha va iboralarga ta’rif berildi. Byudjet Kodeksining 3-moddasida keltirilishicha, “Byudjet jarayoni ishtirokchilari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar” bo‘lib hisoblanadi(2-rasm).



**2-rasm. Byudjet jarayoni ishtirokchilari<sup>5</sup>**

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi (O‘RQ-360-son. 26.12.2013)ning 3-moddasi

Shuningdek, Byudjet Kodeksida markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi va ijroiya organlarining hamda byudjet jarayoni boshqa ishtirokchilarining vakolatlari tegishli moddalarda aniqlashtirildi (3-rasm).



**3-rasm. O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayoning ishtirokchi organlari<sup>6</sup>**

Yangi Byudjet Kodeksi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet

<sup>6</sup> Muminova N.G., Nigmatova D.Z. Moliya va soliqlar. Ma'ruzalar kursi O'zMU – T., 2012 yil – 146 b.

jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish maqsadida ishlab chiqildi.

Kodeksni o'rganish asosida uning "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonundan farqli ravishda byudjet munosabatlarining tashkiliy-huquqiy asoslari haqida so'z borar ekan, xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, 2002 yildan boshlangan va bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinayotgan byudjet jarayonini isloh qilish doirasida byudjetdan moliyalashtirish, byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish, g'aznachilik orqali ular xarajatlari to'lovini amalga oshirish tartiblariga bevosita taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham takomillashib bormoqda. Demak, byudjet munosabatlarining qonuniy-huquqiy va me'yoriy asoslarini tashkil qiluvchi hujjatlar qatorida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi;
- Har moliya yili uchun qabul qilinadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-son "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori (keyingi o'zgarishlar bilan yangi tahriri);
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 19 noyabrda 2157-raqam bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom" va boshqalar.


Keyingi yillarda mamlakatimizda byudjet tizimini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, byudjet munosabatlarini tartibga solish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda byudjet tizimi islohotlari doirasidagi jiddiy o'zgarishlardan biri 2013 yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining qabul qilishi va 2014 yil 1 yanvardan amaliyotga joriy etilishi bo'ldi. Mazkur o'zgarish byudjet qonunchiligini mukammallashtirish, uni xalqaro me'yorlar talablariga moslashtirish borasidagi muhim o'zgarishlardan biridir. Demak, byudjet jarayoni

tashkil qilishda mavjud me'yoriy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilayotganligi mamlakatimizda moliya tizimida olib borilayotgan islohotlar namunalaridan biridir.

## 1.2. Byudjet jarayonini tashkil etishning asosiy bosqichlari va ularni amalga oshirish tartibi

Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi (4-rasm):

- byudjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- byudjetni ko'rib chiqish (muhoqama qilish) va tasdiqlash;
- byudjetni ijro etish;
- byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.



4-rasm. Byudjet jarayoni bosqichlari<sup>7</sup>

<sup>7</sup>Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma - T.: "Iqtisod-moliya", 2008. - 84 b.

Byudjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to‘rt bosqichning barchasidan iborat bo‘lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini byudjet loyihasini ishlab chiqish (yaratish, tuzish), uni muhokama qilish (ko‘rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)ga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) byudjetni ijro etishga (byudjet davri) va sakkiz oyga yaqini byudjetning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to‘g‘ri keladi.

Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish) bosqichida quyidagilar amalga oshiriladi:

- byudjetning hajmi;
- navbatdagi (kelgusi) yil uchun soliq va pul-kredit siyosati;
- byudjet mablag‘laridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari va byudjet defitsitini qoplash metodlari;
- byudjet tizimining bo‘g‘inlari o‘rtasida daromadlarni taqsimlash.

Byudjet so‘rovi:

❖ byudjet tashkilotining, byudjet mablag‘lari oluvchining va byudjet mablag‘larini taqsimlovchining byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq faoliyatining miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oluvchi, o‘tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to‘g‘risidagi tahliliy hisobotni;

❖ xarajat majburiyatlarining ularni kiritish (ijro etish) uchun asos bo‘ladigan hamda moliyalashtirish manbalari va amal qilish muddatlarini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar, shartnomalar va (yoki) ularning alohida qoidalari ko‘rsatilgan reyestrini;

- ❖ byudjet mablag‘larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturini;
- ❖ byudjet mablag‘larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog‘liq holda tuzilgan kelgusi davr uchun byudjet buyurtmasini o‘z ichiga oladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar byudjet so‘rovi bilan bir vaqtda tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarining kelgusi davr uchun prognozlarini taqdim etadi.

Byudjet so'rovini tuzish tartibi:

- Davlat byudjeti bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;
- davlat maqsadli jamg'armalari bo'yicha - ularning taqsimlovchi organlari tomonidan belgilanadi.

Byudjet buyurtmasi byudjet tashkiloti, byudjet mablag'lari oluvchi va byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan tuziladi. Byudjet buyurtmasida o'tgan va joriy yillar uchun hamda kelgusi uch yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar byudjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili 15 aprelga qadar kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini:

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti loyihasini tayyorlash uchun - byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga;
- davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun - davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralardan Davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo'yicha takliflar so'raydi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng uch ish kuni ichida tegishli byudjet so'rovlarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari ko'rsatilgan qarorlar qabul

qilinganidan so'ng uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini:

- ✓ tegishli byudjetlar loyihalarini tayyorlash uchun - tuman va shahar hokimlariga;

- ✓ byudjet so'rovlarini tuzish uchun - Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarga yuboradi.

Tuman va shahar hokimlari kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng uch ish kuni ichida tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari ko'rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan so'ng uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga byudjet so'rovlarini tuzish uchun yuboradi.

Byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish:

- tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha - tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan;

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalari bo'yicha - Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalari, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihalari bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralarning Davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo'yicha takliflarini ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Byudjet so'rovlari ko'rib chiqilayotganda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga byudjet so'rovlari olinganidan keyin o'n ish kuni ichida quyidagilarga yozma bildirishlar yuborish huquqi beriladi:

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga - amalga oshirish uchun asoslar mavjud bo'lmagan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi past bo'lgan, byudjet daromadlarining tegishli o'sishi bilan ta'minlanmagan xarajatlarni kamaytirish to'g'risida, shuningdek byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari pasaygan hollarda xarajatlarni maqbullashtirish haqida;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga - tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari daromadlari hamda xarajatlarining prognozlari asossiz ravishda pasaytirilgan yoki oshirilgan hollarda, mazkur prognozlarga tuzatish kiritish to'g'risida.

Kelgusi davr uchun byudjet so'rovlari:

- ❖ Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan tegishli moliya organlariga - joriy yilning 1 iyunigacha;

- ❖ byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga - joriy yilning 1 iyuligacha;

- ❖ davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga - joriy yilning 1 iyuligacha taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining prognozi bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga - joriy yilning 15 iyunigacha taqdim etadi.

Kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining hamda davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalari:

- tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalari tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan:

-  daromadlar bo'yicha - Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq inspeksiyalari, hokimliklarning bo'limlari va davlat boshqaruvi organlarining boshqa tuman hamda shahar bo'linmalari tomonidan ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida;

-  xarajatlar bo'yicha - tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet so'rovlari asosida ishlab chiqiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar

mahalliy byudjetlarining loyihalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan:

➤ daromadlar bo‘yicha - Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq boshqarmalari va hokimliklarning boshqarmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlarining bo‘linmalari tomonidan ma‘muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida;

➤ xarajatlar bo‘yicha - Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan, Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning byudjet so‘rovlari hamda tegishli tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning prognoz qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat byudjetining loyahasini ishlab chiqish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan:

- makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi;
- daromadlarning tashkil topish manbalari bo‘yicha Davlat byudjeti daromadlari prognozi;
- byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning byudjet so‘rovlari va O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hisobidan ayrim tadbirlar uchun xarajatlar hajmining prognozi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari loyihalari asosida ishlab chiqiladi.

Davlat byudjetining loyhasida xarajatlar daromadlarning prognoz

qilinayotgan hajmidan kelib chiqib Davlat byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori hisobga olingan, uni qoplash manbalari belgilangan holda nazarda tutiladi.

Davlat byudjetining loyihasi:

- ✓ Davlat byudjetining daromadlar manbalari bo'yicha daromadlari va yo'nalishlar bo'yicha xarajatlari prognozidan;
- ✓ Davlat byudjeti taqchilligining eng yuqori miqdori va uni qoplash manbalaridan tarkib topadi.

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan ishlab chiqilgan davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalari tushumlar manbalari bo'yicha daromadlar va yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar prognozidan tarkib topadi.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

Byudjetnoma - erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadigan hujjat bo'lib, ushbu yo'nalishlar asosida Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalari shakllantiriladi.

Byudjetnoma:

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosini;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini;
- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari joriy yildagi ijrosining prognoz bahosini;
- soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihasini;
- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasini;
- davlat qarzining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni;

- soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasiga doir tushuntirish xatini o‘z ichiga oladi.

Byudjetnoma:

❖ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga - joriy yilning 15 sentabriga qadar kiritiladi;

❖ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun - joriy yilning 20 sentabriga qadar kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalari bo‘yicha ikki haftalik muddatda xulosa taqdim etadi;

❖ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga - O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan joriy yilning 15 oktabridan kechiktirmay kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan byudjetnoma O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari navbatdagi yil uchun Davlat byudjetini, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlarini qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining navbatdagi yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qarorlarini ijro etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi, unda:

- asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi;
- Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining asosiy parametrlari;
- Davlat byudjeti taqchilligining eng yuqori miqdori va uni qoplash manbalari;
- davlat maqsadli jamg‘armalarining asosiy parametrlari;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalari miqdorlari;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlari, O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalarning cheklangan miqdorlari;

- umumdavlat soliqlari tushumlaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratmalarning normativlari;

- O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg‘armasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalari miqdorlari tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlarini tasdiqlashga doir qaroriga muvofiq, qaror qabul qilingandan so‘ng bir haftalik muddatda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari hamda xarajatlarining hajmlari qabul qilinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qabul qilgan qarorlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o‘n ish kuni ichida:

- ❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlarini, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalarning cheklangan

miqdorlarini;

❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar byudjetlariga umumdavlat soliq tushumlaridan ajratmalarning normativlarini.

❖ Umumdavlat soliqlaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratmalarning normativlari ayni shu soliqlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratmalarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan normativlaridan ortiq bo‘lmagan miqdorlarda belgilanadi;

❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalari miqdorlarini;

❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar byudjetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlarini tasdiqlash bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari qabul qilinganidan keyin bir haftalik muddatda tuman va shahar hokimlarining qarorlari bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlarning byudjetlari qabul qilinadi.

Davlat byudjetining, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining asosiy parametrlari tasdiqlanganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

✚ Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlari hajmlarini, shuningdek ularga O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan beriladigan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar hajmlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari e’tiboriga - uch ish kuni ichida;

byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar uchun belgilangan daromadlar va xarajatlarning hajmlarini ularning e'tiboriga - o'n ish kuni ichida yetkazadi.


Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari qabul qilinganidan keyin tegishli moliya organlari bir haftalik muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar e'tiboriga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini yetkazadi.

O'zbekiston Respublikasining Favqulodda Davlat byudjeti O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qaroriga ko'ra favqulodda holat sharoitlarida qabul qilinadigan byudjetdir. Ijro etuvchi hokimiyat organlari favqulodda holat sharoitlarida byudjet sohasidagi vakolatlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko'ra amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Davlat byudjetining amal qilishi davrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risidagi qarorlarining, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlari hajmi haqidagi qarorlarining amal qilishi to'xtatib turiladi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Davlat byudjetining amal qilishi tugatilishi bilan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari parametrlariga aniqlik kiritiladi.

Demak, O'zbekiston Respublikasi byudjet jarayonining barcha bosqichlarini ishtirokchilar(DSQ, DBQ, G'aznachilik, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Markaziy Bank, Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi, Parlament, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti) qatnashishiga ko'ra hamda amalga oshiriladigan ishlari yuzasidan bosqichlar ketma - ketligini quyidagi rasmda umumiy holatda ko'rishimiz mumkin (5-rasm):



**5-rasm. Byudjet jarayoni bosqichlari<sup>8</sup>**

### **1.3. Byudjet jarayonini tashkil etish yuzasidan ilg'or xorij tajribalari**

So'nggi 15 yil mobaynida ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda davlat moliyasi sohasida davlat moliya tizimining unumdorlik va ochiqlik darajasini oshirishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Bu davrda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qabul qilingan qarorlar va ko'rilgan choralar uchun hokimiyat organlarining javobgarligi kuchaytirildi. Byudjet taomillariga moliyalashtirish uchun davlat dasturlarini tanlashda tortishuv va ularning

<sup>8</sup>Muminova N.G., Nigmatova D.Z. Moliya va soliqlar. Ma'ruzalar kursi O'zMU – T., 2012 yil – 146 b.

samaradorligiga baho berishda mustaqillik unsurlari kiritildiki, bu baholarda subyektivizmni kamaytirish hamda byudjetni rejalashtirishning sifatini oshirish imkoniyatini berdi.

Xalqaro amaliyot davlat byudjet siyosatining unumdorligini oshirishga nisbatan ikki asosiy yondashuv Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD)ning bir qancha mamlakatlarida yaxshi samara berganligini ko'rsatadi. Chunonchi:

- asosiy urg'uni natijalarga beruvchi birinchi yondashuv “natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish” degan nom bilan mashhur;
- ikkinchi yondashuv o'rta muddatli kelajakka qaratilgan va tarmoq vazirliklarini moliyalashtirishni oldindan belgilash imkoniyatini nazarda tutadi. Bu yondashuv pirovard natijada siyosatni ham oldindan belgilash uchun imkoniyat yaratadi. U “qat'iy byudjet cheklashlari doirasida xarajatlarni o'rta muddatli kompleks rejalashtirish (MTEF)” degan nom bilan mashhur. Ayrim mamlakatlarda byudjet jarayoniga ikkala yondashuv ham joriy etilgan.

Shu sababli xalqaro tajriba sharhining asosiy maqsadi O'zbekistonda byudjet amaliyotini takomillashtirishga ko'maklashishi mumkin bo'lgan mamlakatlarda byudjetni rejalashtirishga nisbatan yondashuvlarning xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yangi Zelandiya, AQSh va boshqa mamlakatlarning byudjet jarayonini takomillashtirish borasidagi tajribasi byudjetni o'rta muddatli rejalashtirish va natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishni kelishilgan holda, iqtisodiyot o'rta muddatli rivojlanishining balanslangan prognoz ko'rsatkichlari tizimlari yordamida joriy etishgina davlat sektorining ishini tubdan yaxshilash, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish muammosini yechishda ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini berishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Byudjet tizimining barcha darajalarini o'rta muddatli moliyaviy rejalashtirishga o'tish amalda byudjetlar “sirpanuvchan uch yillik” rejimida tayyorlanishi va qabul qilinishi, bunda har yili o'zgartirishlar kiritish taomili amal qilishi lozimligini anglatadi. Davlat byudjeti subyektlariga kelsak, ular o'rta

muddatli kelajakka moliyaviy rejalarni shakllantirishga o'tish imkoniyatini asta-sekin qo'lga kiritadilar. Bugungi kunda jahonning bir qancha mamlakatlarida qabul qilingan ushbu yondashuvning mazmuni shu bilan belgilanadiki, u yil doirasidan chetga chiqadigan yirik loyihalarni rejalashtirishdan tashqari, xarajatlarni rejalashtirishni amaldagi va qabul qilinayotgan majburiyatlarni ajratish asosida amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Avval davlat byudjetlarning xarajatlar qismini ilgari o'z zimmasiga olgan majburiyatlardan kelib chiqib belgilaydi. Uch yillik sikl doirasida olg'a siljishga qarab, har bir davrda paydo bo'ladigan va davlat yangi qabul qilinayotgan majburiyatlarga muvofiq sarflashi mumkin bo'lgan mablag'larning qo'shimcha hajmi ham belgilanadi. Bu mablag'lar aynan nimaga sarflanishi davlatning xarajatlarga oid vakolatlari va majburiyatlarini belgilovchi qonunchilikning keyingi rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Ayni shu qonunchilik byudjetni ishlab chiqish uchun bazaga aylanishi lozim.

Ushbu islohot yo'nalishlaridan biri ko'p yillik moliyaviy rejaga o'tishdir. Hozirgi vaqtda bu amaliyot butun jahonda ancha keng tarqalgan va jamoat moliyasini boshqarish sohasida umume'tirof etilgan standartga aylangan. G'arbiy Yevropa mamlakatlari – Germaniya, Angliya, Avstriyada, Britaniya Hamdo'stligi mamlakatlarida, AQShda ko'p yillik byudjetni rejalashtirish borasida boy tajriba to'plangan. So'nggi vaqtda bu amaliyotni joriy etish yo'liga ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan, Sharqiy Yevropa mamlakatlari, xususan, Vengriya va Chexiya ham kirdi.

Byudjet avvalgidek bir yilga tuzilsa-da, unga bu mamlakatlarda kengroq kontekstda yondashiladi. Bu yerda byudjet hujjatlarida markaziy hukumatning davlat moliyasi sohasidagi maqsadlar bilan, shuningdek, taqchillik va qarzning uzoqroq muddatga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlari bilan muvofiqlashtirilgan yillik byudjeti aks ettiriladi. Ayni vaqtda, o'rta muddatli moliyaviy rejani joriy etish asoslari va undan foydalanish yo'nalishlari turli mamlakatlarda o'z xususiyatlariga ega.

Germaniya byudjetni birlashtirilgan o'rta muddatli moliyaviy reja

kontekstida tuzadi. Bunda u fiskal siyosatning muayyan strategik maqsadlariga erishishga harakat qiladi. Ayni holda o'rta muddatli byudjet ko'rsatkichlaridan sirpanuvchi byudjet uchun asos sifatida ham, barvaqt aniqlash tizimi sifatida ham foydalaniladi. Germaniyada daromadlarning o'rta muddatli prognoz baholari o'xshash maqsadlarga xizmat qiladi, lekin Moliya vazirligi ularni har chorakda yangilaydi.

Germaniyada byudjet jarayoni quyidagicha tashkil etilgan. Tarmoq vazirliklari bo'lg'usi moliya yilida moliyalashtirish to'g'risida o'z talablarini va o'z byudjetlari bo'yicha kelgusi uch yilga mo'ljallangan prognozlarni tayyorlaydilar. Ushbu byudjet talablari va prognozlarni tayyorlash Moliya vazirligi oldindan tayyorlaydigan va tarmoq vazirliklariga yuboradigan yo'riqnomalarga muvofiq amalga oshiriladi. Bu yo'riqnomalarda byudjet miqdorining yuqori chegarasi – barcha tarmoq vazirliklari bo'yicha moliyalashtirish limitlari ko'rsatiladi. Mazkur limitlar o'tgan yilgi moliyaviy rejaga aniqlik kiritish yo'li bilan va xarajatlar bo'yicha tayanch rejalarni iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridagi o'zgarishlarni hamda davlatning fiskal strategiyasiga kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda yangilash yo'li bilan belgilanadi. Bundan tashqari, vazirliklarning byudjetlari tarkibidagi xarajatlarning muayyan toifalari bo'yicha byudjet limitlari ham belgilanadi. Moliyalashtirish to'g'risidagi talablarni (byudjet buyurtmalarini) yig'ib olgach, Moliya vazirligi “yuqoridan” beriladigan byudjet limitlarini “quyidan” berilgan moliyalashtirish to'g'risidagi talablar bilan muvofiqlashtirishga kirishadi. O'rta muddatli davrga kelsak, Moliya vazirligi kelgusi moliya yiliga byudjetdan mablag' ajratish loyihasidan kelib chiqib xarajatlar baholarining dastlabki variantini tayyorlaydi. Keyingi bosqichda xarajatlarning ushbu baholari uch yillik moliyaviy reja bilan solishtiriladi, so'ngra ularning bir-biriga muvofiqligini ta'minlash maqsadida xarajatlarga ham, o'rta muddatli moliyaviy rejaga ham tuzatishlar kiritiladi.

Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya va Buyuk Britaniyada o'rta muddatli moliyaviy rejadan asosan byudjet resurslari taqsimlanishining ochiqligi va samaradorligini kuchaytirish vositasi sifatida foydalaniladi, lekin ushbu

mamlakatlar qo‘llaydigan yondashuvlar o‘rta muddatli fiskal siyosatni olib borish, byudjet jarayonining barqarorligi va vorisiyligini ta’minlash imkoniyatini ham beradi. Avstraliya va Yangi Zelandiyada daromadlarning ko‘p yillik prognozlari xarajatlarning ko‘p yillik baholari bilan solishtiriladi va bu kelajakda daromad tushumlari taqchilligi xavfini oldindan aniqlash imkonini beradi.

Buyuk Britaniyada, xuddi Germaniyadagi kabi davlat xarajatlarining o‘rta muddatli rejasi shakllantiriladi. Ammo Germaniyadan farqli o‘laroq, daromadlar bo‘yicha reja faqat bir yilni qamrab oladi, daromad tushumlarining prognoz baholari ushbu mamlakatda o‘rta muddatli byudjet doirasini tashkil etuvchi to‘rt yillik davrga tuziladi. O‘rta muddatli iqtisodiy prognoz va davlat fiskal strategiyasiga muvofiq Buyuk Britaniya G‘aznachiligi xarajatlarning o‘rta muddatli davrga (kelgusi yil plyus uch yilga) mo‘ljallangan jamlangan limitlarini va ayni shu davr uchun vazirliklar bo‘yicha ajratilgan limitlarni belgilaydi. Mazkur limitlar doirasida tarmoq vazirliklari o‘z xarajatlar rejalarini ishlab chiqadilar. Bu rejalar “sirpanuvchi” bo‘ladi – oradan bir yil o‘tgach, ulardan kelgusi yil uchun byudjetni tayyorlash jarayonida tayanch nuqta sifatida foydalaniladi, ya’ni ularning asosida kelgusi yilning byudjet jarayonidagi xarajatlarning limitlari ishlab chiqiladi.

Ko‘p yillik byudjet davri uchun daromad tushumlarining prognozi G‘aznachilik ko‘p yillik byudjet jarayoni mobaynida belgilaydigan xarajatlar bo‘yicha ko‘p yillik limitlarni hisoblash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kanadada qabul qilingan yondashuv Angliyada qo‘llaniladigan yondashuvga juda o‘xshash. Kanada hukumati qo‘llaydigan “Xarajatlarni boshqarish tizimi” fiskal intizomni mustahkamlashga ko‘maklashadi va federal hukumatga fiscal siyosat maqsadlariga erishishga yordam beradi. Kanadada amal qiluvchi yondashuvga muvofiq fiskal strategiyaning o‘rta muddatli maqsadlarini, shuningdek, vazirliklarning ko‘p yillik davrga mo‘ljallangan xarajatlari bo‘yicha limitlarni G‘aznachilik kengashi belgilaydi. Ushbu limitlar doirasida tarmoq vazirliklari uch yillik davrni qamrab oluvchi “o‘rta muddatli biznes-rejalar” ishlab chiqadilar. Vazirliklarning biznes - rejalarida tegishli vazirlik yoki idoraning

bo'lg'usi davr uchun mo'ljallangan strategiyasi, tadbirlar va xarajatlar belgilanadi. Ular vazirlik u yoki bu dasturlarning natijalarini va ularning samaradorlik darajasini o'lchashda foydalanadigan ko'rsatkichlarni ham o'z ichiga oladi. G'aznachilik kengashi belgilagan cheklashlar doirasida vazirliklar o'z faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini o'zlari belgilaydilar va resurslarni eng muhim dasturlar moliyalashtirilishini ta'minlaydigan tarzda taqsimlaydilar. Vazirliklarning biznes-rejalari federal byudjet hujjati tarkibiga kiritiladi.

Avstraliya ko'p yillik byudjetni rejalashtirishga nisbatan o'ziga xos yondashuvni namoyish etadi. Bu yondashuv Britaniya Hamdo'stligi mamlakatlariga shu ma'noda xoski, unda fiskal intizomni rag'batlantirish uchun byudjetni rejalashtirishga nisbatan o'suvchi yondashuv qo'llaniladi, bunda fiskal tashabbuslarni (mablag'larni sarflash bo'yicha takliflarni) ishlab chiqish uchun javobgarlik tarmoq vazirliklariga yuklatiladi. Ammo xarajatlar bo'yicha limitlar belgilanadigan va xarajatlarning o'rta muddatli rejalari ishlab chiqiladigan Angliya va Kanadadan farqli o'laroq, Avstraliyada "xarajatlarning eng katta hajmi" kelgusi yil uchun o'suvchi byudjet takliflarini ishlab chiqishga asos bo'ladi. Bo'lg'usi yildan keyingi yillarga kelsak, xarajatlarning o'rta muddatli baholari Avstraliyada kelgusi yil byudjetiga kiritilgan barcha qarorlar o'zgarishsiz qoladi, degan taxminga asoslangan bo'lg'usi xarajatlarni aks ettiradi. Avstraliyada byudjet jarayoni ishtirokchilari o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi Britaniya Hamdo'stligining boshqa mamlakatlari amaliyotidan farq qiladi. Avstraliyada xarajatlarning baholarini tarmoq vazirliklari emas, balki Moliya vazirligi tayyorlaydi va bu baholarga byudjet jarayoni mobaynida vaqti-vaqti bilan aniqlik kiritib boriladi.

Ba'zi bir mamlakatlarda byudjet loyihasini tuzish davlat ijroiya hokimiyati boshlig'i (rahbari)ning kelgusi yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning umumiy yo'nalishlari muammolari bo'yicha taklifidan (ma'ruzasidan) boshlanadi. Masalan, AQShda Prezident Amerika xalqiga Byudjetnoma bilan murojaat qilib, unda moliya-pul siyosatining asosiy vazifalari, kelgusi byudjet yili va navbatdagi to'rt yil uchun federal byudjet daromad va xarajatlarning hukumat bahosi

shakllantirdi.

AQShda byudjet jarayoni mobaynida tuziladigan o'rta muddatli byudjet baholari u yoki bu qarorlar davlatning fiskal strategiyasi bilan muvofiq emasligini (masalan, byudjet taqchilligini pasaytirish vazifasiga muvofiq kelmasligini) erta aniqlash tizimi bo'lib xizmat qiladi.

AQShda federal byudjet bir yil oldinga tuziladi, lekin u bir qancha elementlarni o'z ichiga oladi. Ularning eng muhimi – kapital qo'yilmalarning ba'zi bir loyihalari bo'yicha byudjetdan o'rta muddatli ajratmalar. Bundan tashqari, federal byudjetga bo'lg'usi byudjet yili plyus yana to'rt yil uchun daromadlar va xarajatlar baholarining ikki guruhi kiritiladi. Ularning biri hukumat siyosati o'zgarishsiz qoladi degan taxmindan kelib chiqib, kutilayotgan daromadlar va xarajatlarni bir necha yil oldin aks ettiradi, ikkinchisi – hukumat taklif qilingan qarorlarni qabul qilgan holda kutilayotgan daromadlar va xarajatlarni aks ettiradi. Federal hukumatdan tashqari, o'rta muddatli byudjetni rejalashtirish bilan ko'pgina shtatlar ham shug'ullanadi, masalan, ikki yillik byudjetlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi. Byudjet jarayoni mobaynida ma'muriyat tayyorlagan, byudjet loyihasida ifodalangan daromad tushumlarini ta'minlash bo'yicha takliflar amalga oshirilgan taqdirda yig'ilishi mumkin bo'lgan daromadlarning summolari prognoz qilinadi. AQShda "soliq xarajatlari"ga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda u yoki bu moddalar soliq solishdan ozod qilinishi munosabati bilan daromad tushumlarining qisqarishi tushuniladi. Shunday qilib, AQSh Kongressi o'rta muddatli kontekstda muayyan xarajatlar moddalarining qiymatinigina emas, balki ayni shu davrdagi "soliq xarajatlari" qiymatini ham ko'rib chiqadi.

AQSh prezidenti Kongressga yo'llagan 2017 yil uchun prognozlari davlat byudjeti loyihasida sarf-xarajatlar 3,65 trillion dollarni, daromad esa 3,21 trillion AQSh dollarni tashkil etishi rejalashtirilgan.

AQSh moliya tizimi mamlakat ichida va xalqaro maydonda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi davlat organlari, banklar hamda korporatsiyalardan tashkil topgan (virtual iqtisodiyot - fond bozorlari daromadlari

judayam katta). Ushbu sohaning asosiy harakatlantiruvchisi mamlakatning Markaziy Banki hisoblanmish Federal Rezerv Tizimi (FRZ) hisoblanadi. Bundan tashqari, AQSh davlat byudjetidagi o'zgarishlar ham mamlakat moliya sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi: davlat xarajatlarining sohaga yo'naltirilishi bevosita firma va korporatsiyalar, banklar hamda davlat muassasalarining moliya bozorlaridagi holatini o'zgartirib yuboradi.

AQShda byudjet jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo'lib, moliya yili boshlanishidan 18 oy oldin boshlanadi. Joriy yilning aprelida Prezidentning ma'muriy byudjet boshqarmasi (Administrativnoe byudjetnoe Upravlenie Prezidenta (ABU)) Federal vazirliklar va hokimliklar uchun kelgusi yilga byudjetni rejalashtirishga xizmat qiladigan ko'rstkichlarni tayyorlash uchun tavsiyalar ishlab chiqadi.

Joriy yilning 1 sentyabriga federal agentliklar va mahkamalar dastur loyihalarini(smetalarni) ABU ga taqdim etadi, agarda biron bir e'tiroz bo'ladigan bo'lsa, qayta ishlashga qaytariladi. Har bir agentlik vedomstvalar bo'yicha (dasturlar kesimida) xarajatlar hisobi rejalashtirilayotgan yil va kelgusi 5 yilga izohi bilan tuziladi. Joriy yilning dekabrda ABU darajasida byudjet loyihasi tayyorlanadi va Prezidentga taqdim etiladi.

Keyingi yilning fevral oyida Prezident Kongressga byudjet loyihasini taqdim etadi. Kongressning Yuqori va Quyi Palatalari byudjet loyihasi bo'yicha alohida majlislarida rezolyutsiya (xulosa) tayyorlaydi. Mavjud kelishmovchiliklar kelishuv komissiyasi doirasida hal etiladi. Har ikkala palataning byudjet bo'yicha kommitetlari Kongress a'zolariga byudjet loyihasiga kiritilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar bo'yicha hisobot beradi. Tayyor qonun loyihasi ikkala palatada ovozga qo'yiladi va va qo'shma majlisida kelishiladi. Byudjet loyihasi yagona tom sifatida palatalarda ovozga qo'yiladi va 15 aprelga qadar Prezidentga imzolash uchun taqdim etiladi.

Agarda Prezident veto qo'ysa, uni har bir palatada 2/3 ovozga ega bo'lish orqali bartarf etish yoki Prezident imzolashi uchun loyihaga o'zgartirishlar kiritish lozim bo'ladi.

AQShda 1977 yildan boshlab federal byudjet yili 1 oktyabrdan boshlanib 30 sentyabrda yakunlanadi (bundan avval 1 iyuldan boshlangan). Ayrim olingan shtatlarda (Alabama, Michigan, Vashington) moliya yili — 1 oktyabrdan, Texasda — 1 sentyabrdan, Nyu-Yorkda — 1 apreldan, boshqa ko'pchilik shtatlarda — 1 iyuldan boshlanadi. Ko'pgina shtatlar 2 yilga byudjet tuzishni amaliyotga tatbiq etmoqdalar. Mahalliy boshqaruvda asosan moliya yili kalendar yili bilan mos keladi.

Ayrim sobiq ittifoq mamlakatlarida, masalan, Boltiqbo'yi va hozirgi MDH mamlakatlarida MTEFni joriy etishga so'nggi uch yil ichida kirishildi. Bu yerda saboqlar olish uchun yetarli tajriba hali to'planganicha yo'q.

Bugungi kunda Rossiyada sektorlar bo'yicha qat'iy byudjet cheklashlari doirasida xarajatlarni o'rta muddatli rejalashtirish kompleks tizimining birinchi bosqichi elementlarigina mavjud: sektorlarga bo'linmagan o'rta muddatli jamlangan moliyaviy reja ishlab chiqilgan. Bu rejaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'rta muddatli dasturi bilan aloqasi, shuningdek, navbatdagi yil uchun byudjetning o'rta muddatli moliyaviy reja bilan aloqasi qonun yo'li bilan tartibga solinmagan va amalda kuzatilmaydi. Shunga qaramay, Rossiyada makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlashuvga erishildi, federal maqsadli dasturlarni ishlab chiqishning qonunchilik bazasi yaratildi va amaliyoti yo'lga qo'yildi, 2004 yilgi byudjet siklida natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishni joriy etish yo'lida ilk qadamlar tashlandi. Rossiyada byudjet islohoti ma'muriy islohot va davlat xizmati islohoti bilan bir vaqtda amalga oshirilmoqda.

1998 yildan boshlab, federal byudjet loyihasini asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning o'rta muddatli prognozi asosida ishlab chiqish mo'ljallandi. Hukumat oldiga 1998 yil uchun byudjetni o'rta muddatli byudjetni rejalashtirish bilan bog'lash, tuziladigan va har yili tuzatishlar kiritiladigan uch yillik moliyaviy rejaga tuzatishlar kiritib borish vazifasi qo'yildi. Bu davrda RF Byudjet Kodeksi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Uning tarkibiga "ko'p yillik byudjetlashtirish elementlari" deb nomlash mumkin bo'lgan bir qancha normalar kiritildi. Ammo ko'p yillik rejalashtirish va byudjetlashtirishni joriy etish yo'lida birinchi urinish

muvaffaqiyatsiz tugadi. Bunga asosan 1998 yilgi iqtisodiy inqiroz, shuningdek, 1998-1999 yillardagi davomli siyosiy beqarorlik sabab bo'ldi.

Ko'p yillik byudjetlashtirishga o'tish yo'lida ikkinchi urinish hozirgi vaqtda amalga oshirilmoqda. Rossiya Federatsiyasi hukumati yangi prinsiplarga muvofiq byudjetni shakllantirish usullarini joriy etishni davom ettirishga qaror qildi. Sektorlar bo'yicha qat'iy byudjet cheklashlari doirasida xarajatlarni o'rta muddatli rejalashtirishga kelsak, Rossiya Moliya vazirligi buni natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish formatida, ya'ni shakllar, yo'riqnomalar va metodik tavsiyalarni tegishli tarzda to'ldirish hamda maromiga yetkazish yo'li bilan amalga oshirishni taklif qildi.

Davlat byudjetining loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish) bo'yicha ishlar yangi byudjet yilining boshlanishidan, masalan, GFRda – 6 oy, Yaponiyada – 8 oy, Fransiyada – 14 oy, AQShda – 18 oy, O'zbekistonda – 7 oy oldin boshlanadi. Uning loyihasini tuzish ijroiya hokimiyat organlari, odatda, Moliya vazirligi (G'aznachilik) zimmasiga yuklanadi.

### **1-bob bo'yicha xulosa**

Shuni alohida aytish kerakki, 2014-2016 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi normalarining amal qilishi va samaradorligini muntazam ravishda hamda har tomonlama monitoring va tahlil qilinishini ta'minlash bilan birga, uning ayrim normalarini yanada takomillashtirish belgilangan.

Byudjet jarayonini tashkil etishda quyidagi prinsiplarga rioya qilinadi:

1. Yagonalik prinsipi
2. Mustaqillik prinsipi
3. Balans metodi prinsipi

Byudjet Kodeksini ishlab chiqish va qabul qilishdan asosiy maqsad – byudjet jarayonini tartibga soluvchi hamda amaldagi qarama-qarshi va eskirgan me'yorlarni bartaraf qiluvchi yagona qonun hujjatini ishlab chiqish va byudjet

jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi O'zbekiston Respublikasining asosiy ikkita "Byudjet tizimi to'g'risida"gi va "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonunlarini, byudjet jarayonining alohida masalalarini tartibga soluvchi oltita qonun va boshqa bir qator hujjatlarni qamrab olgan.

Byudjet Kodeksi O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Byudjet Kodeksi butun byudjet jarayonini yagona va yaxlit qonun hujjatida tizimlashtirishni, davlat byudjetini ham, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarni ham tartibga solishning yagona prinsiplarini qo'llanishni, byudjet jarayoni barcha qatnashchilarining vakolatlarini hamda ularning o'zaro hamkorligi mexanizmlarini belgilashni, barcha darajalardagi byudjetlar o'rtasida vakolatlarni taqsimlashni va ularning o'zaro hamkorligini nazarda tutadi.

## **2-BOB. BYUDJET JARAYONINI TASHKIL QILISH AMALIYOTI**

### **TAHLILI**

#### **2.1. Byudjetni prognozashtirish va rejalashtirish**

Prognozashtirish va rejalashtirish byudjet jarayonining ilmiy asoslangan zarur komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Byudjetni prognozashtirish – bu asosiy byudjet ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirish, byudjetning daromadlar va xarajatlar qismlarining rivojlanishi mumkin bo'lgan yo'llarini ehtimolli baholash majmuasidir.

Prognozashtirishning uch turi – uzoq, o'rta va qisqa muddatli prognozashtirish mavjud. Uzoq muddatli prognozlar 5 yildan 10 yilgacha muddatga ishlab chiqiladi, ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyalarni, o'rta muddatli istiqbolga – 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga (har yili tuzatishlar kiritish bilan) mo'ljallangan prognozlar va dasturlarni ishlab chiqishda foydalaniladi. Qisqa muddatli prognozlar moliya yiliga tuziladi.

Byudjetning rivojlanish prognozini ishlab chiqishda ekstrapolyasiya, ekspert baholash, biriktirilgan metodlardan foydalanilishi mumkin. Ekstrapolyasiya metodi – avvalgi davrlardagi tajribalardan kelib chiqib istiqbolni belgilash. Bu metod nisbatan barqaror byudjetning xarajatlar va daromadlari ba'zi bir moddalarini prognozashtirishda qo'llanishi mumkin.

Ekspert baholash metodi – bu ekspertlar (milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlari yetakchi mutaxassislari)ning baholari asosida tuziladigan prognozdir. Ushbu metodning kamchiligi – subyektivizm elementining mavjudligi. Biriktirilgan metod ekstrapolyasiya va ekspert baholash metodlarini birgalikda ishlatishni nazarda tutadi.

Byudjetni rejalashtirish – moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, davlatning moliyaviy siyosati talablariga bo'ysunadi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy funksiyasi markazlashgan rejalashtirish orqali yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni moliyaviy tizimning bo'g'inlari orasida

mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umummilliy dasturini byudjetlarni va turli darajadagi byudjetdan tashqari fondlarni tuzish va ijro etish jarayonida ishlab chiqishdir. Byudjetni rejalashtirish jarayonida moliya mamlakat rivojlanishining davlat dasturlarini iqtisodiy va sifat ko'rsatkichlariga hamda tabiiy, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni samarali ishlatish usullarini ajratib olishga faol ta'sir ko'rsatadi.

Byudjetni rejalashtirishning asosiy prinsiplari quyidagilardir:

- byudjet masalalarini yagona huquqiy me'yorlar bilan boshqarish;
- byudjet mablag'larini manzilli va maqsadli yo'naltirish xarakteri;
- yillik byudjetni rejalashtirishning uzluksizligi;
- moliyaviy ko'rsatkichlarning barqarorligi (normativlar, soliq stavkalari, smetalar);
- balans metodi.

Byudjetni rejalashtirish davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Byudjetni rejalashtirish o'zida turli darajadagi byudjetlarni tuzish jihatidan byudjet jarayonini, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosini, shuningdek mamlakat byudjetini tuzish nazariyasi va metodologiyasi masalalarini mujassamlashtiradi. Byudjetni rejalashtirish asoslari mamlakat Konstitutsiyasi va qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Byudjet daromadlarini rejalashtirish - iqtisodiyotdagi bozor islohotlari byudjetga tushumlarni prognozlashtirish metodologiyasi va metodikasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Byudjet daromadlarini shakllantirish uch muhim yo'nalishni o'zida mujassamlashtiradi:

- jalb qilinayotgan barcha turdagi daromadlarning prognozlashtirilayotgan summasini hisob-kitob qilish;
- boshqariladigan daromadlarni byudjet tizimining darajalari bo'yicha qonunchilikda nazarda tutilgan tartib va nisbatlarda taqsimlash;
- yuqori va quyi byudjetlar o'rtasida moliyaviy yordam ko'rsatish

(dotatsiyalar, subvensiyalar) va byudjet ta'minotini tenglashtirish (transfertlar) borasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlashtirish.

Davlat byudjeti daromadlarini rejalashtirishni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi amalga oshiradi, u zarur axborot bazasiga ega va soliqlarning byudjetga to'planishi holatini operativ kuzatib boradi.

Daromadlar kontingentini, eng avvalo soliq tushumlarini hisoblash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga hisobot davrida joriy soliq tushumlari va boshqa tushumlar (daromadlar) to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumotlarni hududlar kesimida keyingi yil byudjeti ustida ish boshlashdan oldin (belgilangan asos bo'yicha operativ tahlil qilish uchun) taqdim etadi. Soliq qo'mitasi bu ma'lumotlarni hududiy soliq inspeksiyalaridan oladi;

2. Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligidan keyingi (rejalashtirilayotgan) yilga va o'rta muddatli istiqbolga prognozashtirilayotgan daromadlar hajmini, birinchi navbatda, soliq to'lovlarini belgilovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni oladi.

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: YAIM hajmi; pul massasi hajmini belgilovchi ko'rsatkichlar; milliy iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilayotgan foyda hajmi; ish haqi fondi hajmi; inflyasiya indeksi va deflyatorlar; tovar aylanmasi hajmi va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va har bir darajadagi byudjetlarning daromadlari asosini shakllantiruvchi muhim soliq turlari bo'yicha maxsus hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Olingan ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi soliq va boshqa daromadlar kontingentini prognozashtiradi va ularni hududiy moliya boshqarmalari uchun mo'ljallan ko'rsatkichlar sifatida to'playdi. Hozirgi sharoitda byudjet daromadlarini rejalashtirishning asosililigini oshirish uchun tahlil ishlarining ahamiyati keskin oshib bormoqda. Byudjetga qilinadigan to'lovlar hajmiga ta'sir etuvchi barcha omillar tadqiq etiladi.

3. Shahar, tuman, viloyat va Toshkent shahri moliya organlari o'z

hududlarida davlat soliq organlari va boshqarmalari bilan birgalikda daromadlar kontingentini prognozlashtirish bo'yicha ishlarni parallel olib boradilar. Hisob-kitoblarni amalga oshirish bazasi – keyingi yilga va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlarining asosiy parametrlari bo'lib, u tegishli soliqlar bo'yicha byudjetga to'lovlar hajmini belgilaydi.

Daromadlarni rejalashtirish jarayonida soliq solish bazasi to'g'risidagi ma'lumotdan tashqari rejalashtirilayotgan yilda soliq solish xususiyatlari, chunonchi: stavkalarining o'zgarishi, imtiyozlar berilishi yoki bekor qilinishi va boshqalar haqidagi ma'lumotlar ham bo'lishi kerak.

Shunday qilib, byudjet daromadlarini jamlanma rejalashtirish metodi quyidagilarga asoslanadi: soliq solish bazasi stavkalarini shakllantirish tartibiga oid qonun hujjatlari va tegishli yo'riqnoma materiallariga asoslangan kelasi yil va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi; soliqlar to'planishining shakllangan darajasi.

Xalqaro amaliyotda quyidagi byudjetni rejalashtirish metodlari farqlanadi:

- me'yoriy,
- “erishilgan chegaradan”,
- dasturiy-maqсадli.

Me'yoriy metod byudjet mablag'larida minimal ehtiyojlarni belgilashni nazarda tutadi. Me'yorlar qonun va qonun osti hujjatlari bilan belgilanadi.

Amalda majburiy, oddiy, yiriklashtirilgan, biriktirilgan va boshqa turdagi me'yorlar qo'llaniladi.

Majburiy me'yorlar hukumat yoki hududiy hukumat organi tomonidan; qo'shimcha me'yorlar – idoralar tomonidan; oddiy me'yorlar alohida turdagi xarajatlar uchun; yiriklashtirilgan me'yorlar – tashkilotning jami xarajatlari uchun belgilanadi.

Byudjetni rejalashtirish me'yoriy metodining qo'llanilishi barcha turdagi byudjet xarajatlari (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqalar) bo'yicha katta hajmdagi moliyaviy va tabiiy xarajatlar me'yorini ishlab chiqishni talab etadi. Vazifani yengillashtirish uchun yagona ijtimoiy standartlar (har bir

odamga yoki byudjet xizmatlarining iste'molchisiga yiriklashtirilgan me'yorlar) ishlab chiqiladi. Ammo yagona ijtimoiy standartlarning joriy etilishi byudjet xizmatlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Me'yoriy metoddan foydalanilganida byudjet mablag'larini oluvchilarning o'z xizmatlari sifatini oshirish va uning tannarxini pasaytirishga rag'batlari yo'qoladi. Masalan, o'quvchilar sonidan kelib chiqib moliyalashtiriladigan maktab sinflar maksimal darajada to'lishiga qiziqadi, lekin bunda xizmat ko'rsatishning muhim vazifasi – o'qitish sifati nazardan chetda qoladi. Shu bilan birga, maktab faoliyatining ko'rsatkichi (yakuniy natijasi), aytaylik, maktabni bitirgandan so'ng oliy o'quv yurtlariga kirgan o'quvchilar foizi bo'lsa, o'qish jarayonini tashkil etishga yondashuv umuman boshqacha bo'ladi. Shunga qaramay, me'yoriy metodning qo'llanilishi bir qator hollarda o'rinlidir, misol uchun, binoning tipi va isitilayotgan bino hajmidan kelib chiqib isitish xizmatlarini to'lash uchun zarur bo'lgan xarajatlarga ehtiyojlarni aniqlashda.<sup>9</sup>

Byudjetni rejalashtirishning “erishilgan chegaradan” metodidan byudjet mablag'larining bosh tasarrufchisi, byudjet mablag'larining tasarrufchilari va tashkilotlarning moliyalashtirish limitlarini belgilashda foydalaniladi. Bu metodda byudjetdan moliyalashtirish hajmini aniqlash uchun mo'ljallab bo'lib byudjet mablag'larini oluvchilarning avvalgi yildagi faoliyati ko'rsatkichlari xizmat qiladi. Bu metodni qo'llash oxir-oqibatda byudjetga tushuvchi yuk muntazam oshib borishiga olib keladi, chunki byudjet mablag'larini oluvchilar va tasarruf etuvchilar resurslarni oqilona va tejamkorlik bilan ishlatishga qiziqishni yo'qotadilar va keyingi yilda moliyalashtirish qisqartirilishiga duch kelmaslik uchun o'zlarining xarajatlarini sun'iy ravishda “shishirish”ga harakat qiladilar.

Byudjetni rejalashtirishning dasturiy-maqсадli metodi yoki dasturlar bo'yicha byudjetni rejalashtirish (rejalashtirish, dasturlash va moliyalashtirish tizimi – planning programming and budgeting system – PPBS).

---

<sup>9</sup> Ковалевский А., Сучкова А. Программно-целевое бюджетирование как метод повышения результативности бюджетных расходов // Сборник статей “Развитие бюджетного федерализма: опыт и российская практика” / Общая ред. Мигары Де Сильвы. – М.: Издательство “Весь мир”, 2006. – 350 б.

Dasturiy-maqсадli usul birinchi bo‘lib AQShda o‘tgan asrning 60-yillari o‘rtalarida Mudofaa vaziri Robert Maknamara tomonidan qo‘llanilgan, asta-sekin bu usulni federal hukumatning boshqa vazirliklari ham qo‘llay boshlaganlar.

Metodning maqsadi – davlat moliyasi sohasida byudjet protseduralarining samaradorligini oshirish uchun resurslarni taqsimlash bo‘yicha qarorlarni qabul qilishni takomillashtirish.

Dasturiy-maqсадli tamoyillar asosida tuzilgan byudjetning muhim xususiyati shundaki, yakuniy natijalar, rejalashtirilgan tadbirlardan samara va ularning monitoringi metodlari byudjetning o‘zida belgilanadi. Bunda byudjet faqatgina xarajatlar tasnifining “an’anaviy” (funksional, iqtisodiy, idoraviy) turlari yordamidagina emas, balki aniq dasturlar bo‘yicha ham ishlab chiqiladi. Dastur doirasidagi har bir tadbirga xarajatlar alohida ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, bevosita byudjetda baholash mezonlarining mohiyati ko‘rsatiladi. Ular shu dastur doirasida moliyalashtirilayotgan obyekt yoki xizmatning holatini va dastur yakunlanganda erishilishi rejalashtirilayotgan holatni aks ettiradi.

Dasturiy-maqсадli byudjetlashtirishdan foydalanishda byudjetni rejalashtirish bosqichida quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

- byudjet xarajatlarini unumdorlik ko‘rsatkichlariga bog‘lash;
- tasdiqlangan byudjet doirasida mablag‘larni tasarruf etish imkoniyati;
- belgilangan maqsadlarga erishish usullarini tanlash erkinligi;
- byudjet xarajatlarini dasturiy tasniflash bo‘yicha rejalashtirish;
- o‘rta muddatli moliyaviy rejalashtirishni kiritish;
- hisoblash metodi bo‘yicha xarajatlarni hisob-kitob qilish.

Dasturiy-maqсадli metodda rejalashtirish uzoq muddatli baholash asosida, byudjet xarajatlarini qismlarga ajratish esa – maqsadlar va dasturlardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Dasturiy-maqсадli metod doirasida “zero” asosida rejalashtirish metodi (zero-base budgeting) ham farqlanadi. Rejalashtirish har qanday hukumat organining byudjeti asosida moliyalashtirish mavjud emasligini qayd etishdan boshlanadi. Bu organning xarajatlari umumiy byudjetga qo‘shilgunga qadar,

dasturni baholash va uni boshqa organlarning dasturlari bilan solishtirish amalga oshiriladi.

Byudjetni rejalashtirishning dasturiy-maqсадli usulini kiritish tegishli bazani yaratishni nazarda tutadi, xususan O‘zbekistonda bunga iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa davlat dasturlarini ishlab chiqish va bir maromda amalga oshirish hamda byudjet ko‘rsatkichlarini o‘rta muddatli rejalashtirishga o‘tish imkoniyat yaratadi.

O‘zbekistonda byudjetni rejalashtirish “erishilgan chegaradan” metodiga asoslanadi, unda makroiqtisodiy rivojlanishning erishilgan ko‘rsatkichlari keyingi yilga tuzatish kiritish bilan rejalashtiriladi. Ijtimoiy-madaniy tadbirlarga xarajatlar hisob-kitobi normativlarga va xizmat ko‘rsatish uchun mablag‘lar xarajati me‘yorlariga muvofiq amalga oshiriladi, davlat moliyasini boshqarishni isloh etish doirasida byudjetni rejalashtirish metodlari ham takomillashtiriladi. Masalan, O‘zbekistonda 2005 yildan sog‘liqni saqlash tizimida va 2008 yildan ta‘lim tizimida (umumiy ta‘lim maktablarida) jon boshiga moliyalashtirishga o‘tish amalga oshirilmoqda, ya‘ni bu soha muassasalarining xarajatlarini hisoblash bitta xizmat oluvchiga (sog‘liqni saqlashda – kasal/patsient, ta‘limda – o‘quvchi) mo‘ljallangan baza me‘yorlari asosida amalga oshiriladi. Rejalashtirishning bu usuli byudjet mablag‘larini samarali va oqilona ishlatishga yo‘naltirilgandir.

## **2.2. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va ularning taqsimlanish holati**

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari – byudjet taqchilligini boshqarish va uni tartibga solish, byudjet mablag‘larini sarflashda maqsadli, samarali va oqilona ishlatishga rioya etish bilan birga daromadlarni o‘z vaqtida tushirish, byudjetning samarali ijrosini amalga oshirishdir. Davlat byudjetining ijrosi esa byudjet jarayonidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadiki, bunda belgilangan istiqbol ko‘rsatkichlari, aniq rejalar va ijtimoiy dasturlar amaliyotga tadbiiq etiladi.

Biz bilamizki, davlat moliyasi sohasida olib borilayotgan o‘zgarishlarning

markazida konsolidatsiyalashgan byudjetni shakllantirish va bundan yanada samarali foydalanish, davlat byudjetini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tutgan o‘rnini oshirish masalalari turadi. Davlat byudjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga kiritish bugungi kunda byudjet islohotlarining yirik yo‘nalishlaridan biridir.

Davlat moliyasini boshqarishning isloh qilishni yanada chuqurlashtirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishning yangi shakl va uslublarini qo‘llash g‘aznachilik tizimini joriy qilishni ko‘zda tutadi. G‘aznachilik tizimi byudjet mablag‘larining moliyaviy oqimini boshqarish, byudjet resurslarining kam miqdordagi qoldiqlari bilan byudjet xarajatlarini joriy ijrosini ta‘minlash imkonini beradi, bunda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini tezkor va yakuniy balanslashtirishga erishiladi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.


Iqtisodiyotda ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur‘atlar bilan o‘shishini, inflyasiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta‘minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va

jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda".<sup>10</sup>

Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi Davlat byudjetidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari negizida ishlab chiqildi. Unda respublikaning 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, soliq – byudjet siyosatining yo'nalishlari va Davlat byudjeti parametrlari belgilab qo'yildi. Chunonchi, 2017 yilda soliq siyosatiga barqaror iqtisodiy o'sish, iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari hamda hududlarining makroiqtisodiy va moliyaviy jihatdan o'zaro muvofiq bo'lishi, aholi turmush darajasining oshishini ta'minlashga qaratilgan strategik maqsadlar asos qilib olingan.

Davlat byudjeti yuridik kategoriya sifatida davlatning funktsiya va vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining shakllanish manbalarini va ishlatilish yo'nalishlarini ko'rsatuvchi davlatning yirik moliyaviy rejasi hisoblanadi. Har qanday moliyaviy reja kabi, davlat byudjeti ham daromadlar va xarajatlar qismidan iborat (6-rasm).




**6-rasm. Davlat byudjeti daromad va xarajati<sup>11</sup>**

<sup>10</sup> “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respblikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni

<sup>11</sup>Muminova N.G., Nigmatova D.Z. Moliya va soliqlar. Ma'ruzalar kursi O'zMU – T., 2012 yil – 146 b.

Byudjetning daromadlari yalpi ichki mahsulot qiymatining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi natijasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning byudjetga tushishi natijasida shakllansa, o'z navbatida, byudjet xarajatlari orqali yalpi ichki mahsulotning byudjetga tushgan qismi qayta taqsimlanib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun sarflanadi.


Byudjet daromadlarining shakllanishi mamlakat yalpi ichki mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, oraliq xarakterga ega. Byudjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Byudjetning qayta taqsimlash funksiyasi namoyon bo'lish shakli davlat byudjetiga tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalarning harakatida namoyon bo'ladi. Miqdor jihatdan byudjetning daromadlari yaratilgan yalpi ichki mahsulotda davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki mahsuloti va milliy daromadining umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda byudjetda to'planadigan mablag'larning miqdori va ularni undirishning shakl va usullari belgilanadi. Yuqorida nazarda tutilgan ishlarning bajarilishida byudjet holati katta ahamiyatga ega hisoblanadi (7-rasm).



7-rasm. Byudjet holati<sup>12</sup>

<sup>12</sup> Muminova N.G., Nigmatova D.Z. Moliya va soliqlar. Ma'ruzalar kursi O'zMU – T., 2012 yil – 146 b.

Iqtisodiyotimiz rivojlanishining barqaror va ichki omillariga asosiy eʼtibor qaratilgani, bu orqali uning tashqi konyunkturaviy oʻzgarishlarga bogʻliqligi oʻz vaqtida kamaytirilgani, muhim iqtisodiy va moliyaviy jarayonlarda belgilangan meʼyorlarga qatʼiy rioya qilinayotgani, ayniqsa, moliyaviy intizom masalalariga ustuvor ahamiyat berilgani davlatimiz moliyaviy tizimining barqaror va samarali faoliyat koʻrsatishi uchun puxta zamin yaratmoqda. Ushbu fikrlarning amaliy tasdigʻini mamlakatimiz davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari oʻrtasidagi nisbat, yaʼni davlat byudjeti koʻrsatkichlarining bajarilishi misolida kuzatish mumkin (8-rasm).



**8-rasm. O'zbekistonda Davlat byudjeti ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi, YaIMga nisbatan foizda<sup>13</sup>**

<sup>13</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Bosh maqsadimiz – iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy oʻzgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yoʻl ochib berishdir” nomli maʼruzasini oʻrganish boʻyicha ilmiy-ommabop risola. – T.: “Maʼnaviyat”, 2016. – 376 bet.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2000–2004 yillar davomida mamlakatimiz davlat byudjeti taqchilligini -1,0 foizdan -0,4 foiz darajasiga qadar pasaytirishga, 2005–2008 yillar mobaynida esa davlat byudjeti taqchilligiga barham berib, davlat byudjeti profitsitini 0,1 foizdan 1,5 foizga qadar oshirishga erishdi va yillar kesimida tahlil qilsak 2008 yilda eng yuqori natijani ko'rsatmoqda. Keyingi yillarda mazkur jarayonga ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishiga qaramasdan, byudjet profitsitini saqlab qolishga erishilmoqda. Xususan, 2016 yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida byudjet daromadlarining uning xarajatlaridan ortish hajmi yalpi ichki mahsulotningning 0,1 foizi darajasida bo'lishiga erishildi. Bu ko'rsatkichlar mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijasi hisoblanadi. Umuman olganda, davlat byudjeti sohasidagi bunday yaxshi natijalarni qo'lga kiritishda mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan bosqichma-bosqich o'zgartirish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarni xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning yurtimiz iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi quyidagilardan iborat:<sup>14</sup>

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar;

---

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 26.12.2013 y. O'RQ-360-son Qonuni

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Davlat byudjeti daromadlarining ijrosining tahlilini quyida keltirilgan jadval asosida ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

**Davlat byudjeti daromadlar qismining ijrosi (YaIMga nisbatan %)<sup>15</sup>**

| № | Ko‘rsatkichlar                                 | 2011  | 2012  | 2013  | 2014  | 2015  | 2016  |
|---|------------------------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
|   | Daromadlar - jami                              | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| 1 | To‘g‘ri soliqlar, shu jumladan:                | 26,4  | 25,4  | 24,2  | 23,4  | 24,1  | 24,0  |
|   | Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq   | 5,1   | 4,7   | 4,0   | 3,5   | 3,2   | 3,0   |
|   | Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq | 11,2  | 10,8  | 10,4  | 10,3  | 10,4  | 10,1  |
| 2 | Egri soliqlar, shu jumladan:                   | 48,2  | 49,4  | 51,4  | 53,4  | 52,9  | 51,5  |
|   | QQS                                            | 27,9  | 28,0  | 28,8  | 29,9  | 29,7  | 29,0  |
|   | Aksizlar                                       | 14,9  | 14,9  | 15,9  | 15,6  | 15,4  | 15,3  |
| 3 | Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i          | 15,4  | 15,6  | 14,8  | 13,6  | 13,2  | 12,9  |
| 4 | Boshqa daromadlar                              | 10,0  | 9,6   | 9,5   | 9,6   | 9,7   | 11,6  |

Davlat byudjeti daromadlarining ijrosini tahlil qilar ekanmiz, yillar davomida daromadlar tarkibida to‘g‘ri soliqlarning ulushi kamayib borganligini, egri soliqlar esa aksincha yilma-yil ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu albatta, soliq yuklari to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste‘molchiga tushishini ortib borayotganligini dalolatidir.

Davlat byudjetining xarajat qismi quyidagilardan iborat:<sup>16</sup>

- ❖ ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;
- ❖ nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;
- ❖ iqtisodiyot xarajatlari;
- ❖ markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

<sup>15</sup> Moliya Vazirligining [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – internet sahifasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 26.12.2013 y. O‘RQ-360-son Qonuni

- ❖ davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari;
- ❖ sudlarni, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;
- ❖ fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
- ❖ boshqa xarajatlar.

Davlat byudjeti xarajatlarining ijrosining tahlilini quyida keltirilgan jadval asosida ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval

**Davlat byudjeti xarajatlari (YaIMga nisbatan %)<sup>17</sup>**

| № | Ko'rsatkichlar                                                            | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 |
|---|---------------------------------------------------------------------------|------|------|------|------|------|------|
|   | Xarajatlar - jami                                                         | 21,5 | 21,6 | 21,4 | 21,5 | 21,2 | 22,2 |
| 1 | Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari          | 12,5 | 12,7 | 12,5 | 12,7 | 12,4 | 12,4 |
| 2 | Iqtisodiyotga xarajatlar                                                  | 2,5  | 2,4  | 2,3  | 2,3  | 2,2  | 2,4  |
| 3 | Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalash xarajatlari               | 1,4  | 1,2  | 1,2  | 1,1  | 1,1  | 1,2  |
| 4 | Davlat hokimiyati, boshqaruv va sud organlarini saqlab turish xarajatlari | 0,6  | 0,7  | 0,7  | 0,7  | 0,4  | 0,9  |
| 5 | Boshqa xarajatlar                                                         | 4,3  | 4,4  | 4,4  | 4,4  | 4,4  | 4,6  |


Davlat byudjeti xarajatlarining ijrosini tahlil qilar ekanmiz, xarajatlar 2016 yilda 2011 yilga nisbatan 0,7 foizga ko'payganligini, har bir xarajatlar tarkibi ham yillar davomida oz miqdorda o'zgarib turganligini ko'rishimiz mumkin.

Davlat byudjetining xarajat qismi tarkibida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalari hisobga olinadi.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlikning muhim

<sup>17</sup> Moliya Vazirligining [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – internet sahifasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

begilaridan biri davlat byudjetining profitsit bilan bajarilayotgani hisoblanadi. Xususan, keyingi yillarda davlat byudjeti taqchillik bilan rejalashtirilayotgan bo'lsa-da, soliqlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining ortig'i bilan bajarilishi hamda davlat byudjeti xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanishining ta'minlanishi natijasida byudjet profitsit bilan ijro etilmoqda. Buni quyidagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin (9-rasm).



**9-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlar va xarajatlari tizimi<sup>18</sup>**

Ushbu rasmdan ko'rish mumkinki, davlat byudjeti profitsit bilan chiqqanligini, 2010-2016 yillar mobaynida davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari qariyb 3,1 barobarga ko'payganligini ko'rsatmoqda. Bu o'z o'rnida mamlakatimiz iqtisodiyoti bosqichma-bosqich rivojlanayotganligidan dalolatdir.

Eng asosiy ustuvor vazifa – “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini amalga oshirish, “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan olijanob g'oyani izchillik bilan hayotga tatbiq etishdan iborat. Aynan ana shu eng muhim vazifalar iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy

<sup>18</sup> Moliya Vazirligining [www.mf.uz](http://www.mf.uz) – internet sahifasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

yoʻnalishlari va ustuvor vazifalariga jiddiy oʻzgartirishlar kiritish uchun poydevor boʻlishi kerak. Ijobiy tarkibiy oʻzgartirishlar va iqtisodiyotning yuqori oʻsish surʼatlari tufayli 2016 yil yakunlari boʻyicha aholining real daromadlari 11 foizga oshdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi 15 foizga, pensiya va ijtimoiy nafaqalar – 12,1 foizga, aholi jon boshiga real daromadlar – 11 foizga oʻsdi, 726 ming nafarga yaqin aholining, shu jumladan, 438,5 ming kollej bitiruvchisining bandligi taʼminlandi.<sup>19</sup>

Aytish joizki, davlat byudjeti xarajatlari mamlakat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tom maʼnodagi ifodasini oʻzida aks ettiradi.

Yildan-yilga mazkur xarajatlarning muntazam ortib borishi, davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash salmogʻi yuqorilab borishi kuzatilmoqda. Xususan, ushbu xarajatlar 2000 yilda 9414 milliard soʻmga rejalashtirilib, jami byudjet xarajatlarida 53,6 foizni tashkil etishi koʻzda tutilgan boʻlsa, 2016 – yilga kelib ushbu xarajatlarning jami byudjet xarajatlaridagi ulushi 59,1 foizni tashkil etgan. Ushbu sohaga qilinayotgan xarajatlar, birinchidan, nominal mazmunda va shuningdek, umumiy xarajatlar salmogʻida ham ortib bormoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining tarkibiy tahliliga asoslangan holda taʼkidlash joizki, aholi turmush farovonligini oshirishdagi yanada ijobiy oʻzgarishlarga erishish maqsadida byudjet sohasi xodimlari ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar miqdorini izchil oshirib borish kabi ijtimoiy sohadagi tadbirlarni moliyalashtirish bilan birga jahonda global miqyosda avj olib borayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatimizni barqaror iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omili sifatida ichki talabni ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan chora-tadbirlar kompleksini joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

2017 yil uchun taqdim etilgan loyihalar makroiqtisodiy muvozanatni va barqaror iqtisodiy oʻsishni saqlab qolishga, davlat qarzining asossiz oʻsishiga yoʻl

---

<sup>19</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maʼruzasi

qo‘ymaslikka, aholi daromadlari va turmush darajasini yanada yuksaltirishni ta‘minlashga, chuqur tarkibiy o‘zgartirishlarga va muhandislik, yo‘l-transport hamda ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish bo‘yicha faol investitsiya siyosatini yuritishga, shuningdek, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, hududlarning daromad bazasini ko‘paytirish va mahalliy byudjet xarajatlarini maqbullashtirib, subvensiya oluvchi hududlarni kamaytirishga qaratilgan.

Shuningdek, 2017 yilgi Byudjetnoma loyihasida soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihasi soliq yukini yanada kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq ma‘murchiligini yaxshilash, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar miqdorini yanada oshirishni, byudjet mablag‘larini samarali rejalashtirishga, ulardan foydalanishning natijadorligini oshirishga hamda byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Muxtasar aytganda, davlat byudjeti - davlatimiz iqtisodiy siyosatini belgilovchi asosiy moliyaviy hujjat bo‘lib, u iqtisodni tartibga solishga, ishlab chiqarishning barqaror o‘sishini ta‘minlashga, kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab – quvvatlash va xalqimiz farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

### **2.3. Mahalliy byudjetlar ijrosi tahlili**

Mahalliy byudjetlar daromadi shakllanishida ijobiy siljishlarga erishish lozimligini O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov shunday ta‘kidlagan edi: “Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, byudjetlarni mustahkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirishdir hamda ularni tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidan manfaatdorligi va bu boradagi mas‘uliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu narsa mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga ragbatlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustahkamlaydi”.<sup>20</sup>

Davlat byudjetining quyi bo‘g‘ini bo‘lgan mahalliy byudjetlardan asosan

---

<sup>20</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. - T.: “O‘zbekiston”, 1995. - 257 b.

maorifga, sogʻlikni saqlashga, ijtimoiy taʼminotga, madaniyatga mablagʻlar sarf etiladi. Bu xarajatlar smeta asosida rejalashtiriladi, moliyalashtiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy byudjetlarga eʼtibor koʻpaymoqda. Ularni qoʻllab-quvvatlashga harakat qilinmoqda.

Byudjet nazoratida byudjet mablagʻlarini xarajat moddalari boʻyicha sarflanishini nazorat qilishga katta eʼtibor beriladi. Buning boisi shundaki, byudjetning kassa ijrosi jarayonida ayrim xarajat moddalari boʻyicha belgilangan xarajat summasiga nisbatan ortiqcha moliyalashtirilganligi, ayrim moddalar boʻyicha smetada koʻrsatilgan moliyalashtirishning amalga oshirilmaganligi hollari tez-tez uchrab turibdi. Buning asosiy sababi shundaki,

- birinchidan, ajratilgan mablagʻning maqsadi boʻyicha ishlatilmasligiga yoʻl qoʻyilmoqda;

- ikkinchidan, tijorat banklarining axborot kassasida naqd pullarning yetishmasligi moliyalashtirishni toʻliq amalga oshirish imkonini bermaydi;

- uchinchidan, mablagʻlarni ajratishda kechikish hollari mavjud.

Mahalliy byudjetlar Oʻzbekiston Respublikasi davlat byudjetining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi moliyaviy mablagʻlar bilan taʼminlab boriladi.

Mahalliy byudjetlarning daromad va xarajat qismlari mustaqil va shu bilan birga oʻzaro bir-biriga bogʻliq kategoriyalar hisoblanadi. Ulardan har biri oʻziga xos xususiyatlarga ega. Daromadlar mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy bazasi boʻlib xizmat qiladi, xarajatlar esa hududiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Xarajatlar bir vaqtning oʻzida daromadlarga bogʻliq, daromadlar esa, oʻz navbatida, mahalliy hokimiyat organlarining foydalanilayotgan mablagʻlar hajmiga bogʻliq. Mahalliy byudjetlarning shakllanishi jarayonida mahalliy hokimiyat organlari va ushbu hududda roʻyxatdan oʻtgan yuridik va jismoniy shaxslar oʻrtasida maʼlum bir pulli munosabatlardan kelib chiqadi. Bu munosabatlarni namoyon qilish shakli boʻlib korxona tashkilotlar va aholining turli xil soliq va soliqsiz toʻlovlari xizmat qiladi. Byudjet daromadlari maʼlum darajada xoʻjalik yuritish tizimi va usullariga, shuningdek jamiyat hal qiladigan

masalalariga bog‘liqdir. Masalan, xo‘jalik yuritishning ma‘muriy-buyruqbozlik usulida, ya‘ni barcha ishlab chiqarish vositasitalari davlat ixtiyorida bo‘lganida, byudjetga turli xil to‘lovlarni undirishning qattiq markazlashgan tizimi amal qilgan.

Byudjetlararo munosabatlarni shakllantirish va soliq tizimi transformatsiyasiga prinsipial yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini baholash uchun quyidagi savollarni ko‘rib chiqish mumkin: turli hududlardagi asosiy kapitalda ishlab chiqarish va investitsiyalar dinamikasi, mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy va u orqali boshqaruv imkoniyatlariga asosiy chegaralar qo‘yadigan respublika byudjet-soliq munosabatlarining asosiy jihatlari, ishlab chiqarishni soliq orqali qo‘llab-quvvatlash.

Hududlarda mahalliy byudjetlarni tuzishda ularning daromadlar strukturasi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan to‘liq nazorat qilinishi va ularning daromalari imkoniyat darajasida mahalliy soliqlar va yig‘imlar hisobiga shakllantirilishi lozim.

Turli darajadagi byudjetlarning daromadlar strukturasi optimallashtirishning muhim jihatlardan biri soliq manbalariga soliq yukni ketma-ket o‘rnatilishi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida daromadlar taqsimlanishining samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishi mahalliy byudjetlar daromadlarida tartibga soluvchi umumdavlat soliqlari ulushini kamaytirish va ularning xususiy daromadlarini oshirish bo‘yicha byudjet islohotlari amalga oshirilishi lozim. Bu bilan mahalliy hokimiyat organlarini soliqqa tortishdagi subyektivligini yo‘qotish imkoniyatiga ega bo‘linadi.

Keyingi vaqtlarda solikli daromadlarning byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishida shunday tendentsiya kuzatilmoqdaki, ularni hisobga olmaslik byudjet munosabatlarini shakllantirish nazariyasi nuqtai nazaridan mantiqiy xatoliklarga olib kelishi mumkin. Gap shundaki, avval amaliy jihatidan bir-biriga sinonim hisoblangan hududlarni “byudjet” va “moliyaviy” ta‘minlanganligi bugun o‘zining miqdoriy va mohiyat tavsiflari bo‘yicha

farqlanmoqda. Oldingi davrlarda hududlardagi mahalliy hokimiyat organlari byudjet mablag'laridan tashqari o'zlarining xarajatlarini moliyalashtirish manbalariga ega emas edilar. Bu holat hozirgi vaqtda o'ziga xos sifat ko'rsatkichlari bo'yicha o'zgardi.

Birinchidan, ijtimoiy sohalarda faol tijoratlashish jarayoni sodir bo'lmoqda. Hozirgi sharoitda soliq to'lovchi o'zining xususiy daromadidan kommunal xizmatlar, joy to'lovlari, ta'lim, sog'liqni saqlash va shu kabi ijtimoiy xizmatlar uchun to'lovlarni to'lamoqdalar. Shunga muvofiq, ravishda davlatning ijtimoiy kafolatlarining ayrim turlari moliyaviy ta'minoti bo'yicha byudjet xarajatlari ulushi kamaymoqda. Balansida ijtimoiy infrastruktura muassasalari va obyektlarini saqlash zaruratidan cheklanish maqsadida aksariyat yirik korxonalar o'zlarining ishchi xizmatchilariga ijtimoiy ehtiyojlari uchun pul to'lovlarini ko'paytirishni amalga oshirmoqdalar.

Ikkinchidan, hududlardagi mahalliy byudjetlarda daromadlarning yangi manbalari paydo bo'ldi. Mahsulot eksporti rivojlangan hududlarda tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha sezilarli daromalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Uchinchidan, ayrim hududlar uchun markazdan yuqori darajadagi davlat dotatsiyalarini olmoqdalar. Shuningdek, mahalliy byudjetlar uchun soliqsiz daromad tushumlarini yangi manbalarini shakllantirish borasida keyingi yillarda qator institutsional o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Hududlarning soliqqa tortishni xususiy bazalarini ko'paytirish hamisha ham o'zini oqlamaydi. Aytish joizki, soliqqa tortish sohasidagi mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini hozirgi holati yetarli deb aytishimiz mumkin. Biroq, mavjud vakolatlar soliqqa tortish sohasidagi alohida masalalarga tegishli bo'lib, faol mahalliy byudjet siyosatini amalga oshirishni shakllantiruvchi yagona kompleksni o'zida aks ettirmayapti. Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat organlari o'zlarining iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlari uchun real zarur bo'lgan daromad hududni olishga intilmayaptilar balki, ularning hisob – kitoblari bo'yicha markazdan imkon darajasida ortiqcha daromadlarni olishga intilmoqdalar. Bu holat

byudjetlararo munosabatlar tizimini yetarli darajada takomillashmagani va mamlakat miqyosida huquqiy vaziyatlarni mavhumligi bilan belgilanmoqda.

3 – jadval

**Bektemir tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2014-2016  
yillardagi ijrosi<sup>21</sup>**

| Daromad nomi                                                 | 2014 yil       |                            | 2015 yil       |                            | 2016 yil       |                            |
|--------------------------------------------------------------|----------------|----------------------------|----------------|----------------------------|----------------|----------------------------|
|                                                              | mln.<br>so'mda | Jamiga<br>nisbatan<br>% da | mln.<br>so'mda | Jamiga<br>nisbatan<br>% da | mln.<br>so'mda | Jamiga<br>nisbatan<br>% da |
| Soliqlar                                                     | 13212,0        | 39,8                       | 14624,6        | 62,1                       | 6,411,4        | 57,5                       |
| Jismoniy shaxslar daromad solig'i                            | 2998,7         | 9,0                        | 3269,3         | 13,9                       | 1311,5         | 11,8                       |
| Korporatsiyalar va boshqa korxonalardan foyda solig'i        | 3808,8         | 11,5                       | 1919,1         | 8,2                        | 729,0          | 6,5                        |
| Yuridik shaxslar daromad solig'i                             | 378,9          | 1,1                        | 1230,7         | 5,2                        | 124,1          | 1,1                        |
| Yuridik shaxslardan yagona soliq to'lovi                     | 2975,5         | 8,9                        | 688,4          | 2,9                        | 251,2          | 2,6                        |
| Mol-mulk solig'i                                             | 4139,1         | 12,5                       | 4625,1         | 19,7                       | 2135,4         | 19,1                       |
| Yer solig'i                                                  | 3244,6         | 9,8                        | 3568,8         | 15,2                       | 1640,4         | 14,7                       |
| Ish va xizmatlarga soliq, shu jumladan:                      | 2265,3         | 6,8                        | 4810,8         | 20,4                       | 2235,4         | 20                         |
| QQS                                                          | 2265,3         | 6,8                        | 1966,6         | 8,4                        | 493,1          | 4,4                        |
| Aksiz solig'i                                                | -              | -                          | -              | -                          | 532,0          | 4,8                        |
| Kvazi korporatsiyadan daromadlar                             | 6096,1         | 18,4                       | 6111,8         | 25,9                       | 2538,6         | 22,8                       |
| Davlat bojlari                                               | 1302,9         | 3,9                        | 1484,0         | 6,3                        | 810,2          | 7,3                        |
| Yig'imlar                                                    | 266,8          | 0,8                        | 283,0          | 1,2                        | 129,9          | 1,2                        |
| Jarima, penya va musodara                                    | 12011,1        | 36,2                       | 656,6          | 2,8                        | 257,2          | 2,3                        |
| Boshqa aniqlanmagan daromadlar                               | 206,5          | 0,6                        | 312,7          | 1,3                        | 207,8          | 1,9                        |
| Tuman va shaharlar byudjetiga undiriladigan ijara to'lovlari | 124,5          | 0,4                        | 124,6          | 0,5                        | 51,3           | 0,5                        |
| Boshqa daromadlar                                            | 80,7           | 0,2                        | 184,6          | 0,8                        | 144,8          | 1,3                        |
| Daromadlar                                                   | 33,095,5       | 99,6                       | 23472,9        | 99,7                       | 10355,3        | 92,8                       |
| Majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar            | 125,0          | 0,4                        | 60,0           | 0,3                        | 800,0          | 7,2                        |
| Jami daromadlar                                              | 33220,5        | 100                        | 23532,9        | 100                        | 11155,3        | 100                        |

Keyingi yillarda byudjet tizimida solikli daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning yangi usulidan foydanilayotir ya'ni, foyda

<sup>21</sup> Toshkent shahar Bektemir tumani moliya bo'limi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i tushumlarini taqsimlanishi. Daromadlar taqsimlanishining mazkur transformatsiyasi O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyoti uchun byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida tartibga soluvchi daromadlarni taqsimlanishi avvalo mahalliy darajada amalga oshirilmoqda. Bu ishlar amalini Toshkent shahri Bektemir tumani misolida ko'rishimiz mumkin (3- jadval).

Bizning tahlil obyektimiz bo'lgan Toshkent shahar Bektemir tumani byudjeti tarkibi hisoblanadi. Daromadlarining tarkibiy tahlilidan ko'rinadiki, bilvosita soliqlarning jami byudjet daromadlaridagi salmog'i 2016 yilda 2014 yilga nisbatan 17,7 foizga oshgan. Bu holat shuni tasdiqlaydiki, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlarning fiskal ahamiyati yuqori bo'lmoqda. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami daromadlar tarkibida yig'imlar 1,2 foizni, jarimalar esa 2014 yilga nisbatan 2016 yilda 33,9 foizga kamaygan.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari faolligini yuksaltirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi sharoitida mazkur usul mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishga yo'naltirilgan.

Byudjet daromadlarini shakllantirishning amaldagi holatida soliq yuki darajasi yetarli darajada yuqori va ularning salmog'ini mahalliy byudjetlardagi birlashtirilgan daromadlarni ko'paytirish uchun qo'shimcha soliqlar joriy etish hisobiga ko'paytirish maqsadga muvofiq emas.

Bizning fikrimizcha hozirgi sharoitda mavjud soliqli daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida to'liq yoki fiksirlangan ulushda doimiy yoki uzoq muddat asosida qayta taqsimlash lozim.

Bunday yondashuv ma'lum darajada mahalliy byudjetlarning soliq bazasini barkarorlashtiradi, turli darajadagi byudjet ta'minlanganligi va turli soliq potentsiali sharoitida hududlarning soliq bazalarini shakllanishida tenglashtiruvchi yondashuv saqlanadi.

Mahalliy byudjetlarning amaldagi birlashtirilgan daromad manbalari asosan real soliqlar hisobiga to'g'ri kelib mazkur soliqlar soliq tizimidagi mavjud soliqlar salmog'ida soliq qarzдорligi eng ko'p bo'lgan soliqlar hisoblanadi. Bu holat

aksariyat mahalliy byudjetlar o'zlarining joriy xarajatlari uchun zaruriy pul mablag'lariga ega bo'lmisligi natijasida vaqtinchalik kassali uzilishlarni vujudga keltirmoqda va respublika byudjetidan ssudalar olish hisobiga joriy xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'linmoqda.

Mahalliy byudjetlar uchun Respublika byudjetining daromad manbai hisoblanuvchi aylanmadan olinadigan iste'mol soliqlar bo'yicha daromadlar biriktirilishi lozim. Masalan, AQShda ayrim tovarlarga joriy etilgan aksiz soliqlari mahalliy byudjetlarning daromad manbalari hisoblanadi. Mazkur soliq turlaridan ayrimlarini mahalliy byudjetlar uchun biriktirish ularning moliyaviy mustahkamligini ta'minlaydi va kam miqdordagi aylanma kassa qoldiqlari hisobiga ham mahalliy byudjetlar ijrosini to'laqonli amalga oshirish imkoniyatlari tug'ilishi mumkin.

Respublika soliq tizimi soliqlarni o'rnatish, undirish, qayta taqsimlashning aniq mukammal mexanizmiga ega bo'lishi hamda bunda birinchi navbatda soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini hisobga olish lozim.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq umumiy byudjet xarajatlarini markaziy hukumat organlari va mahalliy hokimiyat organlariga biriktirilgan xarajatlar va o'zaro hamkorlikda moliyalashtiriladigan xarajatlarni aniqlab beradi. Xususan, mahalliy byudjet hisoblanmish Toshkent shahri Bektemir tumanining xarajatlar ijroisini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (4-jadval).

Bizning tahlil obyektimiz bo'lgan Toshkent shahar Bektemir tumani byudjeti tarkibi hisoblanib, 4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami xarajatlar tarkibida eng katta ulushni ta'limga ajratilgan xarajalar bo'lib 2014-2016 yillar davomida 67 foizga yaqin ulushni tashkil etgan. Keyingi o'rinlarni 2014 yilga nisbatan 2016 yilda sog'liqni saqlash 5,3 foizga kamayishi, uy-joy va kommunal xizmatlari esa 0,8 foizga ko'payishi bilan egallab turibdi. Demak, ushbu ko'rsatkichlardan xarajatlar maqsadli va manzilli ravishda sarflanganligini ko'rishimiz mumkin. O'ylaymizki, barcha bajarilayotgan ishlar inson manfaatlarini va ularning turmush tarzi farovonligini hamda ravnaqini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

**Bektemir tumani mahalliy byudjeti xarajatlarining 2014-2016 yillardagi ijrosi<sup>22</sup>**

| Xarajatlar nomi                                                                                      | 2014 yil       |                            | 2015 yil       |                            | 2016 yil       |                            |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|----------------------------|----------------|----------------------------|----------------|----------------------------|
|                                                                                                      | mln.<br>so'mda | Jamiga<br>nisbatan<br>% da | mln.<br>so'mda | Jamiga<br>nisbatan<br>% da | mln.<br>so'mda | Jamiga<br>nisbatan<br>% da |
| Umumiy ahamiyatdagi davlat xizmatlari                                                                | 1268,3         | 5,8                        | 1258,8         | 5,2                        | 454,2          | 4.7                        |
| Ijro etuvchi va qonunchilik organlari, byudjet-moliyaviy masalalar, xalqaro munosabatlar             | 1111,3         | 5,1                        | 1049,6         | 4,3                        | 343,1          | 3.6                        |
| Davlat hokimiyati organlari faoliyati                                                                | 543,1          | 2,5                        | 492,2          | 2,0                        | 158,0          | 1.6                        |
| Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati                                           | 489,6          | 2,2                        | 550,5          | 2,2                        | 185,0          | 1.9                        |
| Umumiy xizmatlar                                                                                     | 157,0          | 0,7                        | 209,2          | 0,8                        | 111,1          | 1.2                        |
| Obodonlashtirish                                                                                     | 1991,1         | 9,1                        | 2338,7         | 9,6                        | 955,0          | 9.9                        |
| Sog'liqni saqlash, shu jumladan:                                                                     | 3129,7         | 14,3                       | 3234,0         | 13,3                       | 868,1          | 9.0                        |
| Ambulatoriya xizmatlari                                                                              | 2315,8         | 10,6                       | 2333,7         | 9,6                        | 868,1          | 9.0                        |
| Umumiy sohadagi tibbiyot xizmatlari                                                                  | 2315,8         | 10,6                       | 2333,7         | 9,6                        | 868,1          | 9.0                        |
| Dam olish, madaniyat, sport va din                                                                   | 251,4          | 1,2                        | 480,2          | 1,9                        | 133,0          | 1.4                        |
| Madaniyat sohasidagi xizmatlar                                                                       | 190,1          | 0,9                        | 423,1          | 1,7                        | 111,8          | 1.2                        |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan dam olish, madaniyat, sport va din masalalari                         | 61,3           | 0,2                        | 57,0           | 0,2                        | 21,2           | 0.2                        |
| Boshqa tadbirlar                                                                                     | 29,7           | 0,1                        | 28,1           | 0,1                        | 8,9            | 0.1                        |
| Ta'lim, shu jumladan:                                                                                | 14728,3        | 67,5                       | 16564,5        | 68,0                       | 6354,2         | 66.0                       |
| Maktabgacha ta'lim                                                                                   | 5152,6         | 23,6                       | 5630,4         | 23,1                       | 2192,7         | 22.8                       |
| Umumiy o'rta ta'lim                                                                                  | 7381,8         | 33,8                       | 8552,4         | 35,1                       | 3237,1         | 33.6                       |
| Ta'lim tizimida yordamchi xizmatlar                                                                  | 2193,8         | 10,0                       | 2381,7         | 9,7                        | 924,2          | 9.6                        |
| Ijtimoiy himoya                                                                                      | 261,3          | 1,2                        | 264,7          | 1,1                        | 33,4           | 0.3                        |
| Qarilik                                                                                              | 33,7           | 0,2                        | 41,8           | 0,1                        | 13,7           | 0.1                        |
| Boshqa toifalarga tegishli bo'lmagan ijtimoiy muhofaza masalalari                                    | 85,7           | 0,4                        | 78,1           | 0,3                        | 19,6           | 0.2                        |
| O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi xarajatlari            | 63,1           | 0,2                        | 45,0           | 0,1                        | 9,6            | 0.1                        |
| Ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya markazlarini saqlash                                            | 22,6           | 0,1                        | 33,0           | 0,1                        | 10,0           | 0.1                        |
| Xarajatlar                                                                                           | 21830,2        | 100                        | 24349,1        | 100                        | 8798,2         | 91.4                       |
| Turli darajadagi davlat boshqaruv organlari o'rtasidagi umumiy tusdagi transfertlar va qarz olishlar | 0,0            |                            | 0,0            |                            | 822,9          | 8.6                        |
| Jami xarajatlar                                                                                      | 21830,2        | 100                        | 24349,1        | 100                        | 9621,1         | 100                        |

<sup>22</sup> Toshkent shahar Bektemir tumani moliya bo'limi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Keyingi yillarda mahalliy byudjet xarajatlarining umumiy ulushida boshqaruv personallarini qisqarishining natijasi hisoblanuvchi boshqarish organlari xarajatlari qisqarib bormoqda. Mahalliy byudjetlarning xarajatlari ijtimoiy sohalar bo'yicha obyektlarni mahalliy byudjetlar balansiga o'tkazilishi bilan bog'liq holda o'sib bormoqda.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq mahalliy byudjetlar defitsit bilan bashorat qilinadi. Biroq byudjet ijrosi jarayonida mahalliy byudjetlar defitsitlariga yo'l qo'yilmaydi va defitsitlar daromadlar va xarajatlarni restrukturizatsiya qilish yoki yuqori turuvchi byudjetlar hisobiga moliyalashtiriladi. Turli daromad bazasiga ega bo'lmalik hududlardagi ijtimoiy xizmatlarga nisbatan sotsial minimumni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'linmayapdi. Natijada hududlarni iqtisodiy faolligi keskin farqlanishiga olib kelinadi va aholining turli regionlarga migratsiya jarayonini sodir bo'lishining omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo xarajatlarning me'yorlarini mavjud bo'lmaligi bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda xarajatlarning asosiy qismi ularni oldingi yildagi faktik hajmi ularga muvofiq keluvchi indeksatsiyani hisobga olgan holda bashorat qilinadi. Moliyaviy resurslarni cheklanganligi hisobiga bu me'yorlarga rioya qilinmayapdi.

Hozirgi vaqtda yagona amaldagi me'yor byudjet sohasidagi muassasa va tashkilotlar ishchilari uchun mehnatga haq to'lash bo'yicha yagona tarif setkasi hisoblanadi.

Demak, moliyalashtirish tegishli yil uchun tasdiqlangan byudjet parametrlariga ko'ra tuzilgan byudjet xarajatlari yillik ro'yxatini choraklar bo'yicha taqsimoti va byudjet tashkilotlarining xarajatari smetasiga muvofiq, byudjet ijrosi jarayonida xarajatlar ro'yxati va smetasiga kiritiladigan o'zgarishlarni hisobga olgan holda olib boriladi.

## **2-bob bo'yicha xulosa**

Davlat byudjeti yuridik kategoriya sifatida davlatning funktsiya va vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining shakllanish

manbalarini va ishlatilish yo'nalishlarini ko'rsatuvchi davlatning yirik moliyaviy rejasi hisoblanadi. Har qanday moliyaviy reja kabi, davlat byudjeti ham daromadlar va xarajatlar qismidan iborat. Byudjetning daromatlari yalpi ichki mahsulot qiymatining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi natijasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning byudjetga tushishi natijasida shakllansa, o'z navbatida, byudjet xarajatlari orqali yalpi ichki mahsulotning byudjetga tushgan qismi qayta taqsimlanib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun sarflanadi.

Byudjet daromadlarini jamlanma rejalashtirish metodi quyidagilarga asoslanadi: soliq solish bazasi stavkalarini shakllantirish tartibiga oid qonun hujjatlari va tegishli yo'riqnoma materiallariga asoslangan kelasi yil va o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi; soliqlar to'planishining shakllangan darajasi. 2016 yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida byudjet daromadlarining uning xarajatlaridan ortish hajmi YAIMning 0,1 foizi darajasida bo'lishiga erishildi. Umuman olganda, davlat byudjeti sohasidagi bunday natijalarni qo'lga kiritishda mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan bosqichma-bosqich o'zgartirish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarni xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning yurtimiz iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Byudjet ijrosining bir necha yillik ijrosi ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, davlat byudjeti hali ham fuqarolarning Konstitutsiyamiz bilan kafolatlangan huquqlarini amalga oshirish tadbirlarining asosiy moliyaviy bazasi bo'lib kelmoqda. 2011-2016 yil byudjet parametrlari tahlili asosida davlat byudjetining qariyb 59-59,7 foiz mablag'lari ijtimoiy sohalarni saqlash va aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilganligini ko'rish mumkin.

### **3-BOB. O‘ZBEKISTONDA BYUDJET JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI**

#### **3.1. Byudjet jarayonini tashkil etishda G‘aznachilik faoliyatini takomillashtirish yo‘llari**

Davlatning jamiyat oldidagi asosiy vazifalarini bajarishdagi rolini oshirgan holda iqtisodiyotni erkin tamoyillar asosida modernizatsiyalash amaldagi qonunchilikka muvofiq xarajatlar va moliyaviy oqimlar yo‘nalishlari ustidan samarali nazoratni ta‘minlashga qodir bo‘lgan zamonaviy moliya tizimini yaratishni talab qiladi. Moliya tizimi o‘zidagi mavjud usullardan foydalanib, ularni takomillashtirgan holda iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun byudjet jarayonining yuqori darajadagi tiniqligi va oddiyligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Davlat xarajatlari va daromadlarini boshqarish orqali ishbilarmonlik faoliyatni rag‘batlantirish, pulning qadrsizlanishiga va ishsizlikka ta‘sir etish mumkin. Bu siyosatning eng muhim vazifalaridan biri iqtisodiy siyosatning maqsadlarini amalga oshirish imkonini beruvchi markazlashgan davlat pul jamg‘armalarini shakllantirish manbalari va usullarini izlab topishdan iboratdir.

Mamlakatimizda o‘tgan yillar mobaynida olib borilgan kuchli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning bugungi kunda xalqimiz farovonligiga xizmat qilayotganligi barchamizga ayon. Barcha qilinayotgan ishlar zahirida ertangi kunga ishonchimiz namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Biz o‘tgan davrda qo‘lga kiritgan yutuqlarimiz bilan g‘ururlanamiz tabiiy, albatta. Lekin shu bilan birga, shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon bilan hamnafas, hamqadam bo‘lib yashash uchun biz dunyodagi, mamlakatimizdagi vaziyatni chuqur tahlil qilgan holda, bugungi va ertangi hayotimizning puxta o‘ylangan, mustahkam rejalarini tuzishimiz kerak ”.<sup>23</sup>

Respublikamizda iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan maqsadli, turli

---

<sup>23</sup> Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mazkur Davlat dasturlarini mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlanishida byudjet tizimi byutjetlarining roli va ahamiyati oshib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida byudjet tizimi byutjetlari daromadlarini oshirishni, uni mustahkamlashni va boshqa daromad manbalarini izlashni talab etmoqda.

“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi”ning III bo‘limi - Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida quyidagi islohotlarni rejalashtirilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish:<sup>24</sup>

- ✓ makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash;

- ✓ xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta‘minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- ✓ soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

- ✓ ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlash;

- ✓ bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta‘minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy

---

<sup>24</sup>“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respblikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni

barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

✓ sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

✓ xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

"Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan uchinchi yo'nalishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

O'zbekiston moliya tizimini isloh qilish sharoitida uning institutsional - instrumental ta'minotining xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga moslashuvi yuz beradi, bu hol iqtisodiyotning erkinlashuviga qarab moliyaviy munosabatlar tub mohiyatining o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar davlatga iqtisodiy va ijtimoiy sohani tartibga solish imkonini beruvchi eng muhim mexanizmlardan biri hisoblangan davlat moliyasi tizimini ham chetlab o'tmadi. Mazkur sohada amalga oshiriladigan

institutsional tuzilmani isloh qilish ko'p jihatdan milliy iqtisodiyotni tartibga solish va rivojlantirish yo'nalishlari va sur'atlarini belgilab beradi. Byudjet va pul muomalasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatining barometri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda butun mamlakat bo'yicha yalpi ichki mahsulotning 35-40 foizi va milliy daromadning 30 foizga yaqini u orqali qayta taqsimlanmoqda. Davlat byudjetida nafaqat daromadlar va xarajatlar, balki iqtisodiy rivojlanishning qolgan barcha parametrlari qayd etiladi. Shuning uchun Davlat byudjetiga butun moliyaviy tizimning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqqan holda, ishonch bilan aytish mumkinki, davlat byudjeti va uning ijrosi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Jahon amaliyotidan ma'lumki, istalgan mamlakatda davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish tizimida byudjetni tartibga solishning u yoki bu modeli amalga oshirilishini ta'minlovchi tashkiliy tuzilma muhim rol o'ynaydi. Chet elda ana shunday tashkiliy tuzilma sifatida an'anaviy tarzda g'aznachilik instituti ishtirok etadi va u o'z rivojining ko'p yillik davri mobaynida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishda byudjet sohasidagi moliyaviy siyosatini amalga oshirish vositasiga aylandi.

Har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishida davlat byudjeti ijrosi muhim rol o'ynaydi. Byudjetni ijro etish - byudjet bo'yicha ko'zda tutilgan barcha daromadlarning o'z vaqtida tushishini va byudjetda rejalashtirilgan xarajatlar miqdorining barchasini moliyalashtirishni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda har bir davlatning byudjeti uning iqtisodiy ko'zgusi hisoblanadi. Davlat byudjetiga kelib tushadigan daromadlar va qilinadigan xarajatlar ustidan nazorat o'rnatish davlat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Byudjet ijrosida xususan byudjet xarajatlari yo'naltirilgan sohalar asosan davlatning rivojlanishida, har tomonlama taraqqiy etishida muhim o'rin tutadi. Shu maqsadda ularga davlat byudjetidan mablag'lar ajratiladi. Davlat byudjetidan ta'minlanadigan sohalarga ajratilgan mablag'larni o'z vaqtida va to'liq yetib borishi, hamda to'g'ri ishlatilishi bu nafaqat tarmoq yoki soha balki butun davlat miqyosidagi vazifadir. Bu jarayonni to'g'ri amalga oshirishda ko'pgina rivojlangan davlatlar g'aznachilik

tizimidan foydalanayotgani hech kimga sir emas.

2006 yilda g'aznachilik tizimi o'tgan respublikamizning ayrim hudularida sinab ko'rilgan bo'lsa, 2007 yildan boshlab barcha hududlarda amal qilishni boshladi. Bu tizim birinchi navbatda davlat xarajatlarini boshqarishni, uni suiste'mol qilinishini oldini olish vazifasini bajaradi. Chunki g'aznachilik davlat daromadlari va xarajatlarini yagona qo'lda jamlash imkonini beradi, ya'ni byudjet mablag'larini o'zga maqsadlar uchun va samarasiz sarf qilish holatlarini aniqlash hamda bartaraf etishni ta'minlaydi. Ushbu tizimda barcha birlamchi to'lov hujjatlari g'azna qo'lida bo'ladi va bu byudjet ijrosining to'la bajarilishini ta'minlaydi.

Bu tizimning yana bir alohida afzalligi g'aznachilik organlarining barpo etilishida, banklarning byudjetning daromad qismini shakllantirish jarayonida faol ishtirokini ta'minlanishidadir. Banklarning davlat byudjeti daromad qismini shakllantirish jarayonida g'aznachilik tizimi aniq-puxta hisob-kitobni talab qiladi. Bu esa pul oqimlarini har bir kunda nazorat qilishni va samarali boshqarishni ta'minlaydi. Bu ishning amalga oshirilishi iqtisodiy rivojlanishning bir to'sig'i bo'lgan inflyatsiya darajasini nazorat qilishni osonlashtiradi. Demak g'aznachilik tizimi davlat byudjetiga daromadlarni o'z vaqtida va to'liq tushishini, shu orqali davlat byudjeti xarajatlarini to'liq hajmda moliyalashtirishni ta'minlaydi. Davlat byudjetidan moliyalashtirilgan mablag'larni joylarga samarali yetkazib berishda ushbu mablag'larini hisobga olish hisobvaraqlaridan foydalaniladi. Bu hisobvaraqlarida byudjet mablag'laridan foydalanuvchilar uchun biriktirib qo'yilgan mablag'lar aks etadi. Byudjet mablag'larini taasarruf etuvchilar shu hisobvaraqlarda ko'rsatilgan summadan ortiq mablag' olish huquqiga ega emaslar. Bu hisobvaraqlar g'aznachilikda yagona tizim sifatida amalga oshiriladi va byudjet hisobvaraqlarini ochish yoki yopishga g'aznachilik ruxsatisiz yo'l qo'yilmaydi.

Hozirgi davrda respublikamizda g'aznachilik tizimining joriy qilinishi barcha byudjetlar moliyaviy mablag'lari oqimini ushbu tizimning tarmoqlari orqali o'tishini taqozo etadi. Bu byudjet mablag'lari ustidan yalpi va uzluksiz nazorat

oʻrnatishga imkon beradi. gʻaznachilik tizimi tashkil boʻlishidan oldin davlat byudjeti ijrosida xususan xarajatlar doirasida mablagʻlarni suisteʼmol qilish va samarasiz sarflash holatlari uchrab turar edi. Bu tizimini joriy etish natijasida bu mablagʻlarning toʻgʻri va toʻliq hajmda ishlatilishga zamin yaratildi. Davlat byudjeti xarajatlarni sarflash nafaqat byudjet tashkilotlari balki, butun iqtisodiyotga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Chunki, agar tizimda belgilangan xarajatlar oʻz vaqtida va belgilangan maqsadlar uchun toʻliq sarflansa belgilangan sohada albatta rivojlanish boʻladi, aksincha davlat byudjeti mablagʻlarini notoʻgʻri sarflanishi byudjet taqchilligini yuzaga keltiradi, bu esa butun iqtisodiyotni zoʻriqishiga olib keladi. Bunday holat pulni ortiqcha emissiya qilinishi oqibatda inflyatsiyaga, inflyatsiya esa koʻplab ishlab chiqarish korxonalarini sinishiga va shu tufayli ishsizlikning ortishiga olib keladi. Shundan koʻrinib turibdiki, birgina davlat byudjeti ijrosini toʻgʻri amalga oshirilmasligi butun iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Hozirda respublikamizda joriy etilgan gʻaznachilik tizimi esa ana shunday salbiy oqibatlarni oldini olishda bizga dasturi amal boʻlib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida jahonda vujudga kelgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz Oʻzbekistonga ham birmuncha salbiy taʼsirini koʻrsatib oʻtdi. Mana shunday sharoitda hukumatimiz tomonidan puxta ishlab chiqilgan byudjet-soliq siyosati oʻzining ijobiy samaralarini berganligini bugungi kunda hammamiz buni yaqqol guvohi boʻlib turibmiz. Oʻzbekiston Respublikasida gʻaznachilik inistitutini joriy qilinishi oʻz samarasini berganligini va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish hamda jahon talablariga javob beradigan byudjet ijrosi tashkil etish borasidagi ishlarni muhim qismi hisoblanadi. Gʻaznachilik tizimini joriy qilish evaziga Respublikada davlat moliyasi jumladan, mahalliy byudjet resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishda jiddiy ilgari siljish yuz bermoqda. Davlat byudjetini Gʻaznachilik ijrosini joriy qilinishi byudjetni tayyorlash jarayonini takomillashtirish qisqa muddatli istiqbollik va byudjet siyosatini olib borishni joriy qilish byudjet ijrosi sifatini, soliqlarni yigʻish faoliyatini takomillashtirishga yanada kengroq sharoit yaratildi.

G‘aznachilikning batafsil hisobga olishning barcha bosqichlarida ishtirok etishi byudjetning muvozanatlashganligi tamoyilini amalga oshirish, mavjud makroiqtisodiy vaziyat sharoitida prognoz qilish jarayonida yuzaga keladigan nomutanosibliklarning o‘rnini qoplash imkonini beradi. G‘aznachilikning ishtiroki prognoz qilinayotgan resurs bazasidan kelib chiqib mazkur davrda ustuvor bo‘lgan yo‘nalishlarni va davlat byudjetini moliyalash hajmini to‘g‘ri va aniq belgilash imkonini beradi.

G‘aznachilik tizimi iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish hamda ijro etuvchi hokimiyat instituti va davlat moliyaviy resurslari jumladan, byudjetlarni ijro etish jarayonida byudjet jarayonining ishtirokchilari o‘rtasida daromadlarni jamg‘arish, ularni taqsimlash va byudjet mablag‘larini muayyan oluvchilarga yetkazish, davlat aktiv va majburiyatlarini hisobini olib borish shuningdek, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning topshirig‘iga ko‘ra operatsiyalarni amalga oshirish yuzasidan yuzaga keladigan munosabatlarni ifodalovchi institutsional tizim hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, MDH davlatlarini barchasida ushbu tizimni joriy qilindi va ayni paytda ular mavjud tizimni takomillashtirish ishlari bilan band. Mana shu nuqtai – nazardan qarasak, bizning respublikamizdagi g‘aznachilik tizimi mukammalroq bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Sababi ular yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarni biz chetlab o‘tishimiz va ular tajribasiga tanqidiy yondashishimiz mumkin.

Markaziy g‘aznachilikning tashkil qilishdan maqsad – O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosi jarayonida mablag‘lar samarali boshqarish, davlat buyurtmalarini va dasturlarini moliyalashtirishda tezkorlikni oshirish, byudjet daromadlari tushumini va davlat mablag‘laridan maqsadli sarflanishini nazorat qilishda tezkorlikni ta‘minlashdir.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda dasturlarni moliyaviy ta‘minlash va davlat mablag‘lari foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish ishida g‘aznachiliksiz mufaqqiyatga erishib bo‘lmaydi. G‘aznachilikni joriy etish davlat mablag‘larini boshqarish tizimining samadorligini oshirishga ko‘maklashadi.

G‘aznachilik tizimida qilinayotgan xarajatlarni eng yuqori darajadagi “tiniqligi”ga erishiladi. G‘aznachilik organlarining asosiy vazifalaridan biri byudjet mablag‘larini maqsadli va samarali ishlatilishini nazorat qilish hisoblanadi. O‘zbekistonda yaratilayotgan markazlashtirilgan g‘aznachilik tizimi g‘aznachilikning yagona hisobraqamida naqd pullarni markazlashtirishni, shuningdek, byudjet ijrosining nazoratini va hisob-kitobini ko‘zda tutadi. G‘aznachilik tizimida byudjetni ijro qilish jarayoni detallashtirilgan, u quyidagi ko‘rsatkichlarni aniq nazorat qilish imkonini beradi:

- barcha byudjet mablag‘larining miqdori;
- byudjetdan moliyalashtirishning kafolatlangan limiti;
- byudjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan haqiqiy tuzilgan shartnomalarning hajmi;
- tuzilgan shartnomalar asosida berilgan avans to‘lovlarning hajmi;
- tovar-moddiy boyliklar va bajarilgan ishlar hajmi qabul qilinganligi tasdiqlangandan keyin, shuningdek taqdim qilingan schot-fakturalarning to‘g‘riligini tekshirilganidan so‘ng to‘lanadigan ish haqi va boshqa turdagi pul mablag‘lari summasi;
- to‘lovga taqdim etilgan hisobraqamlardagi mablag‘lar miqdori;
- byudjet mablag‘lari hisobraqamidan haqiqiy ko‘chirilgan mablag‘lar miqdori.

Bizning fikrimizcha, g‘aznachilik organlari faoliyatini takomillashtirish davlat byudjetining g‘azna ijrosini rivojlantirish va samarali tashkil etishning asosiy omillari hisoblanadi. Bunda asosiy e‘tibor quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiq:

- byudjet jarayonining yagona metodologiyasi, byudjet ijrosining g‘azna shaklini samarali qo‘llovchi mamlakatlarning to‘plangan tajribasini har tomonlama o‘rganish va umumlashtirish asosida Davlat byudjeti g‘azna ijrosi bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi o‘z normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish va davlat moliyaviy resurslarining g‘azna hisobini yuritish shuningdek, byudjetlar g‘azna ijrosi tamoyillarini mustahkamlovchi holatga keltirish;

- davlat moliyaviy resurslarini jumladan davlat daromadlari va xarajatlari ijrosini kassaviy rejalashtirish va pul mablag'larini boshqarish, uni hisobini yuritish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish;

- g'aznachilik davlat moliyaviy resurslari jumladan, byudjet jarayoni barcha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning alohida mexanizmini talab qilinishini inobatga olib, davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larining ijrosini amalga oshirish bilan bog'liq barcha moliyaviy jarayonlar puxta reglamentlanishi va ishtirokchilarning huquqi va javobgarligi aniq chegaralanishi bo'yicha huquqiy hujjatlarni takomillashtirish;

- byudjetlar g'azna ijrosi butun jarayonining yagona axborot tizimini joriy etish, rivojlantirish va undan samarali foydalanishni tashkil etish va bunda davlat byudjetining g'azna ijrosi axborot tizimi nafaqat davlat moliyasi, balki boshqa davlat moliyaviy resurslari uning daromadlari va xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa sohalarni ham qamrab oluvchi axborot oqimlari tizimi va uning huquqiy himoyalash obyektlarini belgilab beruvchi kontseptual asoslarni ishlab chiqish;

- bugungi kunda davlat byudjetining xarajatlari qismi to'liq g'azna ijrosi bilan qamrab olinganligini inobatga olgan holda, endilikda davlat byudjeti daromadlari qismini g'azna ijrosi bilan to'liq qamrab olinishiga erishishda asosiy e'tiborni davlat byudjeti daromadlari g'azna ijrosi metodologiyasini ishlab chiqishga va uni me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratishga hamda takomillashtirib borishga qaratish.

- g'aznachilik tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etilayotgan bir paytda, byudjetdan mablag' oluvchilar bilan g'aznachilik organlari o'rtasida o'zaro integrallashgan axborot tizimini ham joriy etish, bunda asosiy e'tibor byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan shartnomalar va to'lov topshiriqnomalarini g'aznachilik organlariga online rejimi tizimida jo'natish va qabul qilish jarayoniga qaratish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, respublikamizda byudjet tizimi islohotlari sharoitida g'aznachilik tizimi institutini jadal rivojlantirish

istiqbolda yuqori natijalarni ta'minlaydi.

### **3.2. Byudjet jarayonida natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotini rivojlantirish masalalari**

Iqtisodiyotni liberallashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida moliya tizimi va xususan uning bo'g'inlarini isloh qilish bir qator yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda.

Byudjet tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash muammolari va ularni hal qilishda quyidagi yo'nalishlarni ko'rishimiz mumkin:

- iqtisodiyotdagi soliq yukini qisqartirish siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat byudjetning daromadlarini samarali shakllantirish va uning manbalari tarkibini optimallashtirish;

- daromadlarni davlat byudjetning turli bo'g'inlari xarajat majburiyatlariga asoslangan holda taqsimlanish mexanizmini samarali shakllantirish,

- davlat byudjeti xarajatlarini manzilli va maqsadlilikini oshirishni ta'minlash. Ulardan iloji boricha iqtisod qilingan holda zaruriy ehtiyojlarni moliyalashtirishga yo'naltirish hisoblanadi.

- davlat byudjeti ijrosini g'aznachilik tizimiga o'tkazish va shu yo'l bilan byudjet ijrosining samarali tizimini shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan tahlillar natijasida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda keyingi yillarda egri soliqli daromadlarning ustuvor ahamiyatga ega bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu holat soliq yukini ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga o'tkazilayotganligidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, byudjet daromadlari nuqtai nazaridan egri soliqlar asosan, respublika byudjetiga birlashtirilgan soliq hisoblanib, ulardan tartibga soluvchi daromadlar sifatida foydalanilayotir. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida ularning salmog'i tartibga soluvchi daromadlar sifatida hozirgi kunda 60% atrofini tashkil qilmoqda. Bu holat mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlamaydi. Shuning uchun egri soliqlarning ma'lum bir turlarini

mahalliy byudjetlar uchun daromad manbai sifatida biriktirilishi lozimdir. Bu holat byudjet tizimidagi markazlashtirilgan boshqarish tizimini nisbatkan cheklab, amaldagi markazsizlashtirish (destentralizatsiya) siyosatini tadbiq etishning muhim qadamlaridan biri hisoblanishi mumkin.

Hozirgi sharoitda byudjetdan moliyalashtirilayotgan xarajatlarni maqsadli yoʻnalishini taʼminlash va samarali foydalanish masalasi byudjet siyosatining kun tartibidagi asosiy masalasi hisoblanadi. Xarajatlarni manzilliligi va maqsadligini kuchaytirishning asosiy omillaridan biri byudjet nazoratini takomillashtirish hisoblanadi. Byudjet nazoratini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlardan biri byudjet ijrosining gʻaznachilik tizimini joriy qilish hisoblanib, gʻaznachilik tizimi sharoitida byudjet nazoratining dastlabki va joriy nazorat shakllaridan keng foydalaniladi, yaʼni bu bilan byudjet daromadlari va xarajatlari ijrosining monitoring tizimi shakllantiriladi. Shuning uchun byudjet ijrosining gʻaznachilik tizimini meʼyoriy-huquqiy asoslarini imkon darajada mukamallashtirilgan holda shakllantirilishi va uni keng doirada amalda tadbiq qilinishi lozimdir.

Bizga maʼlumki, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda soliqlar muhim vosita hisoblanadi. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni tartiblashning oʻziga xos yoʻnalishlari mavjud boʻlib, mazkur yoʻnalishlar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida kichik biznes subyektlarini ragʻbatlantirish, ularni YaIM tarkibidagi salmogʻini oshirishni taminlash;
- iqtisodiyot uchun bazaviy xususiyatga ega boʻlgan tarmoqlardagi soliq yukini pasaytirish va ularni moliyaviy xoʻjalik faoliyatiga soliqlarning taʼsirini nisbatan kamaytirish;
- ishlab chiqarish jarayonida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining manfaatlarini hisobga olgan holda samarali soliq mexanizmini shakllantirish;
- aholi uchun ijtimoiy zararli boʻlgan tovarlar va mahsulotlar isteʼmolini nisbatan cheklash;

- iqtisodiyotdagi investitsion faollikni rag'batlantirishga qaratilgan soliq mexanizmini shakllantirish;

Bugungi kundagi soliqlar vositasida milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini yuksaltirishning rag'batlar tizimi qaytadan ko'rib chiqilishi lozimdir. Amaldagi soliqlarning rag'batlantiruvchilik faoliyati eksport operatsiyalar tarkibiy tuzilishiga qaratilgan emas. Eksport operatsiyalarini soliqlar vositasida raqbatlantirishda uning tarkibiy tuzilishi xususan, tayyor mahsulot eksportini qo'shimcha rag'batlantirishga qaratilishi lozimdir. Bu albatta, milliy iqtisodiyotni jahon xo'jaligidagi xom ashyo bazasidan tayyor mahsulot eksporti potensialini oshirilishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Byudjet xarajatlarini takomillashtirish esa quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi kerak:

- byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarni inventarizatsiya qilish kerak;

- byudjet mablag'laridan foydalanishda byudjet intizomiga rioya qilishni ta'minlaydigan mukammal nazorat tizimini shakllantirish lozim;

- davlat ichki va tashqi qarzlarini bo'yicha xizmat ko'rsatish to'lovlarini mutanosib ravishda takomillashtirish kerak. Hozirda bu xarajatlar asosan tashqi qarzlarni to'lashga yo'naltirilmoqda;

- byudjet tashkilotlarning kreditorlik qarzlarini bartaraf qilish va byudjet tashkilotlaridagi to'lov intizomini kuchaytirish lozimdir.

Davlat byudjetini g'azna ijrosi byudjet mablag'larining maqsadli va samarali ishlatishga hamda kreditor to'lov intizomini mustahkamlashga va natijada debitor va kreditor qarzdorliklarni keskin qisqartirish, ya'ni Davlat byudjeti ijrosi jarayonini jahon andozalariga javob beradigan yangi sifat pog'onasiga chiqarishdir. O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik tizimini yaratish bilan bog'liq bo'lgan islohotlar Davlat byudjeti ijrosi jarayondagi tubdan o'zgarish deb baholasa bo'ladi.

Byudjet ijrosini isloh qilishda Davlat byudjeti ijrosiga mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachilik tizimini yaratish nazarda tutiladi. Respublikamizda Davlat byudjeti g'aznachilik ijrosiga

bosqichma-bosqich o'tish rejasi O'zbekiston Respublikasi g'aznachiligini tashkil etish konsepsiyasiga asosan ishlab chiqilgan va unda mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari inobatga olingan.

Byudjet mablag'laridan foydalanishning asosini birinchi navbatda ustuvor vazifalarni ta'minlashga yo'naltirilgan dasturlarni mablag' bilan ta'minlash hamda foydalanilmayotgan yoki samarali foydalanilmayotgan resurslarni qayta taqsimlash tashkil etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, hozirgi kunda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish alohida o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan byudjet xarajatlarini rejalashtirish byudjet mablag'lari taqsimotining optimal variantini tanlashga yo'naltirilishi va milliy iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini orttirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida byudjet xarajatlarining samarali ishlatilishi uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rish zarur.

Byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning asosiy vazifalaridan biri hududlarda dasturiy-maqсадli usulni joriy etgan holda undan foydalanib, byudjetlarni rejalashtirishni takomillashtirish hisoblanadi. Rejalashtirishning mazkur usuli boshqaruv jarayonining barcha davrlarida – rejalashtirishning maqsadidan tortib natijani va sarflangan byudjet xarajatlarining samaradorligini baholashgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish dasturlarni amalga oshirishga belgilangan byudjet mablag'lari miqdori dasturlarni amalga oshirishda erishilgan natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyot byudjetni rejalashtirish jarayonida muammolarning mavjudligiga alohida e'tibor berilayotganligiga qaramasdan dasturiy-maqсадli usulni yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Ayni vaqtda byudjetni rejalashtirish tizimida yagona tushuncha mavjud emas, uni baholashda yondashuv tizimlashtirilmagan, byudjet xarajatlari samaradorligi va natijaviyligini baholash dastaklari ishlab chiqilmagan. Shakllantirilayotgan byudjet birinchidan, ma'lum bir darajada moliyalashtirishga erishish uchun aniq maqsadlarni belgilamaydi; ikkinchidan, dasturlarni amalga

o'shish dastur doirasida bajariladigan chora-tadbirlar va boshqalarga sarflangan mablag'lar bilan yakuniy natija o'rtasida o'zaro aloqadorlikni ta'minlovchi mexanizm ishlab chiqilmagan. Bundan ko'rinadiki, hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va byudjetni rejalashtirish o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud emas, bu ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida "natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish" termini so'nggi besh yil ichida foydalanilmoqda, shunga qaramay milliy byudjet qonunchiligimizda ushbu termin mazmun-mohiyatining yo'qligi, uning to'liq va mukammal tushunish imkonini hamda xarajatlarni rejalashtirishda foydalanishga o'tishni ma'lum ma'noda sekinlashishiga xizmat qilmoqda.

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish sharoitida byudjetni shakllantirish bir necha bosqichli bo'lib ham, umumdavlat miqyosida ham alohida olingan byudjet jarayoni ishtirokchisida xarajatlarni rejalashtirish jarayonida foydalanishilishi kerak. Taklif etilayotgan dastur va uning elementlari o'zgaruvchan bo'lib, davlat xarajatlari va jamiyatdagi natijalar o'rtasida bog'liklikni o'rnatuvchi turli usullar majmuini tashkil etadi.

Ilmiy izlanish jarayonida natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish tushunchasining mohiyati-mazmuni o'rganilgan holda, bizningcha, natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish o'rta muddatli istiqbolda davlat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib ishlab chiqiladigan byudjet siyosatiga asoslangan holda byudjetni rejalashtirish bo'lib, pirovard natijada sarflangan byudjet mablag'larining natijalar bilan bog'liqligini aks ettiradi.

Byudjetni rejalashtirish amaliyotini takomillashtirish maqsadida natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish usulining joriy etilishi byudjet siyosatining strategiyasi bilan amalga oshirilgan xarajatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni byudjetni shakllantirish jarayonidagi ko'rsatkichlar tizimi orqali baholash imkonini beradi. Bunda natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishning maqsadi byudjet xarajatlarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini va natijaviyligini orttirish hisoblanadi. Buning uchun byudjetni rejalashtirishning vazifalari, obyekti, subyekti va predmetini aniqlab olish zarur.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishning o'rini yoritishda uning bir necha bosqichlarda amalga oshirish lozim:

- hududlarda byudjetni rejalashtirish jarayoniga natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishni joriy etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish;

- byudjet mablag'laridan foydalanish bo'yicha hisobot materiallarini takomillashtirish zarur. Bu byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan taqsimlangan byudjet mablag'laridan qay darajada foydalanilganligi va uning natijalarini o'zida aks ettirishini ta'minlash.

Shuni alohida qayd etishimiz mumkinki, natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish modelining nazariy asosida ijtimoiy-iqtisodiy siyosat maqsad va vazifalarini belgilovchi xarajatlarning dasturiy tasnifi yotadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, amalga oshirilgan dasturlarning samaradorligini ta'minlovchi asosiy elementlar sifatida byudjet mablag'larini samarali yo'naltirilishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar; dasturni baholash va audit qilish mexanizmi; byudjet mablag'larini taqsimlovchilari uchun rag'batlantiruvchi dastaklar tizimi va boshqalar. Bular natijasida natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishni hududlar byudjetini rejalashtirishni joriy etish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yuzasidan olib borilayotgan siyosatning natijaviyligi ortadi. Bu esa pirovardida mamlakatda modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishiga erishiladi.

### **3-bob bo'yicha xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayonini takomillashtirib borish obyektiv zaruriyatdir. Zamonaviy sharoitlarda byudjet tizimini isloh qilish iqtisodiy vaziyatning obyektiv talablari bilan asoslanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham byudjet orqali tartibga solishning roli

kamaydi, chunki jamiyat bozorning qudrati yetmaydigan jarayonlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi kuchli va obro‘li hokimiyatga muhtojligi yo‘qolmaydi, aksincha byudjet bular uchun moliyaviy resurslarni to‘plash va oxir oqibatda ularni sarflash imkonini beradi.

Hozirgi davrda respublikamizda g‘aznachilik tizimining joriy qilinishi barcha byudjetlar moliyaviy mablag‘lari oqimini ushbu tizimning tarmoqlari orqali o‘tishini taqozo etadi. Bu byudjet mablag‘lari ustidan yalpi va uzluksiz nazorat o‘rnatishga imkon beradi. G‘aznachilik tizimi tashkil bo‘lishidan oldin davlat byudjeti ijrosida xususan xarajatlar doirasida mablag‘larni suiste‘mol qilish va samarasiz sarflash holatlari uchrab turar edi. Bu tizimini joriy etish natijasida bu mablag‘larning to‘g‘ri va to‘liq hajmda ishlatilishga zamin yaratildi. Davlat byudjeti xarajatlarning sarflash nafaqat byudjet tashkilotlari balki, butun iqtisodiyotga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Natijaviylikka yo‘naltirilgan byudjetlashtirish sharoitida byudjetni shakllantirish bir necha bosqichli bo‘lib ham, umumdavlat miqyosida ham alohida olingan byudjet jarayoni ishtirokchisida xarajatlarni rejalashtirish jarayonida foydalanishilishi kerak. Taklif etilayotgan dastur va uning elementlari o‘zgaruvchan bo‘lib, davlat xarajatlari va jamiyatdagi natijalar o‘rtasida bog‘liklikni o‘rnatuvchi turli usullar majmuini tashkil etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizning asosiy moliyaviy hujjati iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning o'rnini va rolini tubdan oshirish, xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilish hisobidan yuqori iqtisodiy sur'atlarni ta'minlash vazifasini nazarda tutadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida amalga oshirilgan tahlillar natijalariga asoslangan holda quyidagi ilmiy xulosalarni va amaliy tavsiyalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

1. Byudjet jarayoni — Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

2. Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

- byudjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- byudjetni ko'rib chiqish (muhojama qilish) va tasdiqlash;
- byudjetni ijro etish;
- byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

3. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida byudjet tizimi prinsiplari aniq belgilangan bo'lib, undagi muhim yangiliklardan biri byudjet mablag'larining manzilli va maqsadli sarflanishi, byudjet mablag'lari sarflanishining natijaviyligi va samaradorligi, kassaning yagonaligi, javobgarlik, ochiq-oydinlik (oshkoralik) kabi byudjet tizimi prinsiplari qo'shimcha kiritilganligini inobatga olgan holda, kelgusida byudjet tizimini boshqarishda mazkur prinsiplarga qat'iy amal qilinishini ta'minlash;

4. Prognozashtirishning uch turi — uzoq, o'rta va qisqa muddatli prognozashtirish mavjud. Uzoq muddatli prognozlar 5 yildan 10 yilgacha muddatga ishlab chiqiladi, ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyalarni, o'rta muddatli istiqbolga — 3 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga (har yili tuzatishlar kiritish

bilan) mo'ljallangan prognozlar va dasturlarni ishlab chiqishda foydalaniladi. Qisqa muddatli prognozlar moliya yiliga tuziladi;

5. Dasturiy-maqсадli tamoyillar asosida tuzilgan byudjetning muhim xususiyati shundaki, yakuniy natijalar, rejalashtirilgan tadbirlardan samara va ularning monitoringi metodlari byudjetning o'zida belgilanadi. Bunda byudjet faqatgina xarajatlar tasnifining "an'anaviy" turlari yordamidagina emas, balki aniq dasturlar bo'yicha ham ishlab chiqiladi. Dastur doirasidagi har bir tadbirga xarajatlar alohida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, bevosita byudjetda baholash mezonlarining mohiyati ko'rsatiladi. Ular shu dastur doirasida moliyalashtirilayotgan obyekt yoki xizmatning holatini va dastur yakunlanganda erishilishi rejalashtirilayotgan holatni aks ettiradi.

6. Moliya vazirligi G'aznachiligining davlat byudjeti ijrosini ta'minlashdagi vazifalari va funktsiyalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Byudjet Kodeksida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlarini g'aznachilik nuqtai nazaridan kengaytirish;

7. Byudjet jarayoni ijrosi borasida Moliya vazirligi G'aznachiligi faoliyatini sohasini yanada takomillashtirish lozim. Hozirgi kunda G'aznachilik tomonidan faqat byudjetning xarajatlari qismi amalga oshirilayapti, xolos. Byudjet daromadlari qismini ham Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan ijro etilsa byudjet mablag'larining yanada samarali shakllanishiga erishiladi degan fikrdamiz.

8. Respublikamizda byudjet tizimi islohotlari doirasida natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishni, Byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishni amaliyotga joriy etishni dastur doirasida ta'minlashga erishish;

9. Davlatning uzoq muddatga mo'ljallangan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Davlat dasturlarining muhim jihatlarini hisobga olgan holda davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini rejalashtirishni takomillashtirish;

10. Byudjet jarayoni ishtirokchilari o'rtasida Yagona axbort almashuv tizimini joriy etish va unda quyidagilarga: axborot almashuv tizimining yagona texnik shartlar asosida dasturiy ta'minotlar majmuasi bilan ta'minlash; tizimni barqaror ishlashi va ma'lumotlarni telekommunikatsiya kanallari orqali uzatilishida axborot

xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi me'yoriy talablarni ishlab chiqish; byudjet jarayoni ishtirokchilarining o'zaro axborot almashishlari uchun yagona qoidalarni joriy qilish.

11. Davlat byudjeti ijrosi davomida moliya va g'azna organlarining axborot dasturiy ta'minotini bir biriga muvofiqligini ta'minlash orqali byudjet ijrosi ma'lumotlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutga barham berish imkoniyatlarini oshirish.

12. Byudjet jarayoni ishtirokchilari o'rtasida byudjet ijrosi bo'yicha hisobotlar almashuvida o'zaro elektron axborot almashuvini joriy etishni mukammallashtirish.

13. Byudjet tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash muammolari va ularni hal qilishda quyidagi yo'nalishlarni ko'rishimiz mumkin:

- iqtisodiyotdagi soliq yukini qisqartirish siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat byudjetning daromadlarini samarali shakllantirish va uning manbalari tarkibini optimallashtirish;

- daromadlarni davlat byudjetning turli bo'g'inlari xarajat majburiyatlariga asoslangan holda taqsimlanish mexanizmini samarali shakllantirish,

- davlat byudjeti xarajatlarini manzilli va maqsadlilikini oshirishni ta'minlash. Ulardan iloji boricha iqtisod qilingan holda zaruriy ehtiyojlarni moliyalashtirishga yo'naltirish hisoblanadi.

14. Amalga oshirilgan dasturlarning samaradorligini ta'minlovchi asosiy elementlar sifatida byudjet mablag'larini samarali yo'naltirilishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar; dasturni baholash va audit qilish mexanizmi; byudjet mablag'larini taqsimlovchilari uchun rag'batlantiruvchi dastaklar tizimi va boshqalar. Bular natijasida natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishni hududlar byudjetini rejalashtirishni joriy etish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yuzasidan olib borilayotgan siyosatning natijaviyligi ortadi. Bu esa pirovardida mamlakatda modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishiga erishiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

### **1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. - T.: “Adolat” 1996. – 557 b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. (O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida” gi O'RQ-136-son Qonuni (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)).
4. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son).
5. O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida” Qonuni 2 sentyabr 1993 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralda “Davlat byudjetining G'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-594-sonli qarori.
7. “O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori. PQ-2099-son. 25.12.2013.
8. “O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori. PQ-2270-son. 04.12.2014.
9. “O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori. PQ-2455-son. 22.12.2015.
10. “O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori. PQ-2699-son. 27.12.2016.

11. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respblikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachiligi to‘g‘risidagi nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 53-sonli qarori.

## **2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari**

13. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. - T.: “O‘zbekiston”, 1995. - 257 b.

14. Karimov I. A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. T.: “O‘zbekiston”, 2005. – 526 b.

15. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: “O‘zbekiston”, 2009. – 56 b.

16. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish - bosh yo‘limiz. - T.: //Xalq so‘zi, 2002 yil 15 fevral.

17. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

18. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.– T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

## **3. Darslik va o‘quv adabiyotlari**

21. Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы.: Уч. для вузов. - М.: “ЮНИТИ”, 2007. – 683 с.

22. Eshnazarov T. O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachilik tizimi asoslari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2012. - 303 b.

23. I.A.Azizova Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2010. - 152 b.
24. Ковалевский А., Сучкова А. Программно-целевое бюджетирование как метод повышения результативности бюджетных расходов // Сборник статей "Развитие бюджетного федерализма: опыт и российская практика" / Общая ред. Мигары Де Сильвы. – М.: Издательство "Весь мир", 2006. – 350 с.
25. Nurmuxamedova B., Kabirova N. Finansi. T.: Izdatelskiy dom "Tasvir", 2008. – 216 b.
26. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 262 b.
27. Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma - T.: "Iqtisod-moliya", 2008 - 84 b.
28. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 84 b.
29. Muminova N.G., Nigmatova D.Z. Moliya va soliqlar. Ma'ruzalar kursi O'zMU – T., 2012 yil – 146 b.
30. Прокопчук Л.О., Козирева А.А. Стратегическое планирование: конспект лекций.- СПб.: Изд.Михайлова В.А., 2007. – 242 с.
31. Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2005. – 450 b.
32. Qosimova G., Shaakramov Q. Mahalliy byudjetlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2012. - 258 b.
33. Rajabov Sh., Vahobov D. Davlat byudjeti (risola) – T.: "Moliya-iqtisod", 2009. – 44 b.
34. Sirojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. – Toshkent, 2010 . - 500 b.
35. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2008. – 660 b.
36. Vahobov A.V., Sirojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. - T.: "Moliya-iqtisod", 2002. – 57 b.

37. Yo.Sh.Fayzullaev, I.A.Azizova Byudjetni o'rta muddatli rejalashtirish, Toshkent, 2010. - 152 b.

#### **4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)**

38. Eshnazarov T. Davlat moliyasini tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2012. -№12.

39. Qosimova G.A. Byudjet mablag'i va uning samaradorligini oshirish muammolari. Mulkdor. 2006 yil, 7 aprel 14-son, 7-8 b.

40. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten, T.: CER, 2015, 2016, 2017 yillar – 94 b.

41. O'zbekiston Respublikasi yillik statistika to'plami. 2015.

42. Sh.Axmadjanov A.Allakuliev. O'zbekistonda natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish masalalari va xorij tajribasi. Moliya ilmiy jurnali. 2012 yil 3-son, 5-7 b.

#### **5. Internet saytlari.**

43. <http://www.gov.uz> - (O'zbekiston Respublikasining hukumat portali).

44. <http://www.lex.uz> - (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

45. <http://www.mf.uz> - (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

46. <http://www.soliq.uz> - (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)

47. <http://www.stat.uz> - (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)

48. <http://www.bfa.uz> - (O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi)